


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

Maxmudov Ravshan To'rayevich

5230100- Iqtisodiyot (Makroiqtisodiyot) yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini
olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Xorazm viloyati tumanlarida aholini ish bilan bandligini ta'minlashni
takomillashtirish yo'llari ("Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy himoya
qilish boshqarmasi" misolida)

Ilmiy rahbar:



Xamrayev Q.

MUNDARIJA:

Kirish.....	5-6
1-Bob. Iqtisodiyitni modernizatsiyalash sharoitida aholi bandligining nazariy- uslubiy asoslari.....	7-44
1.1. Aholini ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.....	7-14
1.2. Aholini ish bilan ta`minlashning demografik xususiyatlari.....	15-19
1.3. O`zbekiston Respublikasida aholini ish bilan bandlik siyosati.....	20-44
2-Bob.O`zbekistonda aholi bandligini ta`minlashning ustuvor yo`nalishlari.....	45-59
2.1. Aholi bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli.....	45-50
2.2. Aholining ish bilan bandligini taminlash yo`llari.....	51-56
2.3. Xorazm viloyatida yangi ish o`rinlari yaratish dasturining ustuvor yo`nalishlari.....	57-59
Xulosa va takliflar.....	60-61
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	62-64

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bozor islohotlari sharoitida aholini ish bilan bandligini oshirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi va bu vazifani ado etish talab etiladi. Buning uchun esa ish bilan bandlikni ta'minlash va uni oshirishning asosiy yo'llarini aniq belgilab olish va amalga oshirish kerak bo'ladi.

Prezidentimiz ta'kidlanganidek, "Yangi ish o'rinlari tashkil etish, bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari doimo e'tiborimiz markazida bo'lib qolmoqda. Ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida 2013 yilda qariyb 970 ming kishi ish bilan ta'minlandi. Bu ish o'rinlarining 60,3 foizdan ortig'i qishloq joylarda yaratilgan. Bu borada kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 480 mingdan ortiq, kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod ish o'rinlari tashkil etildi"¹.

Aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikning oldini olish bugungi kunda har bir mintaqada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda har bir hududning o'zi ijtimoiy muammolarni hal etish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy sharoitlari hamda imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mehnat resurslari tinimsiz o'rganilib va tahlil etilib borilishi talab qilinadi. Mintaqada bozor sharoitida aholi bandligini oshirish yo'llari borasida davlat va nodavlat sektorlarida ishga joylashtirish borasida aniqlangan muammolar va kamchiliklar mavjud.

Respublika mintaqalarining Xorazm, Surxondaryo, Jizzax, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha olib borilgan ishlar ancha qoniqarsiz holatda. Demak, yuqoridagi hududlarda mavjud muammolarni hal etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

Ishning maqsadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda aholini ish bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2014 yil 18 yanvar.

Ishning vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar hal etilishi rejalashtirilgan:

- Aholini ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berish;
- Aholini ish bilan ta`minlashning demografik xususiyatlarini yoritib berish;
- O`zbekiston Respublikasida aholini ish bilan bandlik siyosatini mohiyatini yoritib berish;
- O`zbekistonda aholi bandligini ta`minlashning ustuvor yo`nalishlari belgilash;
- O`zbekistonda Respublikasida aholini ish bilan band qilish tizimining o`ziga xos xususiyatlarini ochib berish;
- Aholi bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli o`rganish;
- Aholining ish bilan bandligini taminlashni takomillashtirish bo`yicha xulosalar shakllantirish.

Tadqiqotning predmeti. O`zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish shakllaridan biri, ya`ni aholini ish bilan ta`minlash yo`nalishlarini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning ob`ekti. O`zbekiston Respublikasi mehnat bozori va undagi bandlik masalalari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va uslubiy asoslari. Bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda Mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimovning respublikamizda aholini ish bilan ta`minlash hamda Vazirlar mahkamasining bandlik sohani takomillashtirish bo`yicha ishlab chiqqan ko`rsatma va qarorlariga tayangan holda yondashilgan.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi. Usbbu bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

1-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholi bandligining nazariy-uslubiy asoslar

1.1. Aholini ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.

Aholini ish bilan bandligi inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, u mehnat masalalari bilan bog'liq muammolarni hamda mehnatga bo'lgan talab va takliflarni qondirish yo'llarini ochib beradi. Ish bilan bandlik kishilarning ish joylari qayerdaligidan qat'iy nazar, ijtimoiy foydali mehnatga qatnashishi yuzasidan o'zaro kirishadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlaridir. Ish bilan bandlik munosabatlari, mehnatga layoqatli kishilarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichdir. Aholini ish bilan bandligi toifasi faqat iqtisodiy komponentlar bilan cheklanmaydi. Ish bilan bandlik, avvalo, ijtimoiy munosabatlardir. Shu bois qandaydir azaliy, bevosita yuzaga keladigan hodisa sifatidagi ijtimoiylik uning asosiy xususiyati hisoblanadi. Ish bilan bandlik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'lar ekan uni quyidagicha ta'riflash mumkin. Ish bilan bandlik- fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq, ularga ish haqi yoki mehnat daromadi keltiriladigan faoliyatidir. Iqtisodiyotning sifat jihatdan oldingisidan farq qiluvchi har bir rivojlanish bosqichi uchun ish bilan ta'minlashning muayyan modeli mos keladi, chunki uning asosiy xususiyatlari jamiyat faoliyatlarining muhim jarayonlarini ochib beradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyat muammolari ichida insonning shaxsiy va talab ehtiyojlarini hisobga olmasdan hal qilishga urinish omadsizlikka mahkum etadi. Shuning uchun avvallari olimlar ish bilan bandlik muammolarini ko'rib chiqayotganlarida asosan, uning iqtisodiy jihatlariga e'tibor bergan bo'lsalar, keyingi paytda ish bilan bandlikning ijtimoiy jihatlarini to'g'risida tobora ko'proq gapirilayotganligi bejiz emas. Aholining ish bilan bandlik kontseptsiyasi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muayyan bosqichidagi ish bilan ta'minlanishining xususiyatini ochib beradigan qarashlar, tasavvurlar tizimidir. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunining 2-moddasida qayd etilganidek: "Ish bilan ta'minlash – fuqarolarning qonun hujjatlariga

zid kelmaydigan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatdir”.

Quyidagilar ish bilan ta'minlangan deb hisoblanadi:

- yollanib ishlayotgan, shu jumladan,, ishni to'liqsiz ish vaqtida haq evaziga bajarayotgan, shuningdek, haq to'lanadigan boshqa ishga, shu jumladan,, vaqtinchalik ishga ega bo'lgan fuqarolar;
- betoblighi, mehnat ta'tilida, kasbga qayta tayyorlashda, malaka oshirishda ekanligi, ishlab chiqarishni to'xtatib qo'yganligi munosabati bilan, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq vaqtincha ish joyi saqlanib turadigan boshqa hollarda vaqtincha ish joyida bo'lmagan fuqarolar;
- o'zini ish bilan mustaqil ta'minlayotgan fuqarolar, shu jumladan,, yuridik shaxs tashkil qilmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolar, kooperativlarning a'zolari, fermerlar va ularning ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila a'zolari;
- Qurolli kuchlarda, Milliy xavsizlik xizmati va ichki ishlar organlari va qo'shinlarida xizmatni o'tayotgan, shuningdek, muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolar;
- ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishda ajralgan holda ta'lim olayotgan fuqarolar;
- qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat olib borayotgan jamoat birlashmalari va diniy muassasalarda ishlayotgan fuqarolar.
- Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi “Mehnat kodeksi”ga muvofiq quyidagi sabablarga ko'ra vaqtinchalik ish joyida bo'lmagan fuqarolarning ish joyi saqlanib qoladi va ular ish bilan ta'minlangan, deb hisoblanadilar:
- davlat va jamoat vazifalarini bajarayotgan vaqtda;
- ish beruvchi va mehnat jamoasi manfaatlariga doir vazifalarni bajarganda;
- jamiyat manfaatlariga doir harakatlar qilganda.

O'zini ish bilan mustaqil ta'minlaydigan fuqarolar toifasiga quyidagilar kiradi:

- tadbirkorlar;

- fermerlar va ularning ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan oila a'zolari;
- dehqon xo'jaligining ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila a'zolari;
- kooperativlarning a'zolari;
- yozuvchilar, rassomlar va boshqalar.

Iqtisodiy jihatdan faol bo'lgan aholi uchun, shu jumladan, ishsizlar uchun ish bilan ta'minlash maqomini belgilab olish muhimdir. Odatda besh maqom bor.

1. Yollanma xodimlar - bular korxonalar rahbariyati bilan mehnat faoliyati shartlari to'g'risida tuzilgan yozma kontrakt (shartnoma) yoki og'zaki bitim bo'yicha ishlaydigan shaxslar bo'lib, ular ana shu faoliyat uchun yollanish vaqtida kelishib olingan ish haqini oladilar.

2. Yakka tartib asosida ishlaydiganlar - mustaqil ravishda faoliyat olib boradigan, o'zlariga daromad keltirayotgan ish bilan shug'ullanadigan, faqat qisqa muddatga yollanma xodimlardan foydalanadigan yoki foydalanmaydigan shaxslar.

3. Ish beruvchilar - o'zining hissadorlik jamiyatini, xo'jalik shirkatini va hokazoni boshqaradigan yoki buning uchun davlat tomonidan vakil qilingan shaxslar. Ish beruvchi o'z funksiyalarini yollanma boshqaruvchiga to'liq yoki qisman topshirib qo'yishi, korxonaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun javobgarlikni o'zida olib qolishi mumkin.

4. Oilaviy korxonalarining haq to'lanmaydigan xodimlari - qarindoshiga tegishli bo'lgan oilaviy korxonada haq olmasdan ishlaydigan xodimlardir.

5. Ish bilan ta'minlash maqomi bo'yicha tasniflashga to'g'ri kelmaydigan shaxslar - ilgari o'zlariga daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanmaydigan kishilar. Ularga ish bilan ta'minlashning biron-bir maqomiga mos kelmaydigan shaxslar ham kiritiladi.

Aholini hisobga olishning amaliy ehtiyoji ish bilan ta'minlashning turlarini ajratib ko'rsatish zarurligini nazarda tutadi. Masalan, to'liq, oqilona va erkin tanlangan ish bilan ta'minlash bo'ladi.

To'liq ish bilan ta'minlash - bu kasbga oid mehnat bilan ta'minlanish bo'lib, u shaxsga daromad keltiradi va o'zi hamda oilasining munosib turmush kechirishiga sharoit yaratadi.

Aholining ish bilan oqilona ta'minlanishi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi bozor muvozanatiga erishishni bildiradi. Bunday holda ishsizlikning yo'l qo'yilishi mumkin (tabiiy) darajasi vujudga keladi.

Erkin tanlangan ish bilan ta'minlash shuni nazarda tutadiki, bunda o'zining mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatiga (ish kuchiga) egalik qilish huquqi faqat uning egasiga, ya'ni xodimning o'ziga tegishli. Mazkur tamoyil har bir xodimning ish tanlashida to'g'ri yo'l tutishini, har qanday ma'muriy tarzda ishga jalb qilishni taqiqlashni kafolatlaydi.

Ish bilan ta'minlashning yuqorida keltirib o'tilgan turlari aholining ishga bo'lgan ehtiyoji bilan ish o'rinlari o'rtasidagi muvozanatni miqdor va sifat jihatidan ta'minlash holatini aks ettiradi, bunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bozor munosabatlariga o'tish davri sharoitida mehnat samaradorligi ortib borishiga qarab, kasbiy mehnat bilan ta'minlanish darajasi umuman mamlakat bo'yicha qisqarib boradi. Bunga sabab shuki, yuqori samarali iqtisodiyot nisbatan kamroq miqdordagi xodimlarga muhtoj bo'ladi, shuningdek, aholida ijtimoiy foydali mehnatning boshqa turlariga qiziqish ortishi bilan uning ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyoji ham kamayib boradi.

Ish bilan ta'minlash munosabatlarini iqtisodiy, demografik va ijtimoiy jarayonlar taqozo qiladi. Uning iqtisodiy mazmunini xodim uchun o'z mehnati bilan o'ziga munosib tarzda yashashni ta'minlash, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga yordam berish imkoniyatida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy mazmun shaxsning tarkib topishi va rivojlanishida ifodalanadi. Demografik mazmun ish bilan ta'minlash aholining yosh va jinsiy xususiyatlari, uning tarkibi va boshqalar bilan bog'liqligini aks ettiradi.

Aholini ish bilan ta'minlashning barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa mazmunlari quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi: ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish; qishloq xo'jaligi bo'lmagan ish joylarini

ko'paytirish; iqtisodiy faol aholining mehnatda ishtirokini oshirish; mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlash; qishloq aholisining mehnat daromadlarini ko'paytirish; ishsizlikni kamaytirish va boshqalar. Bunday nazariy tushunchalar markaziga uni rivojlantirishning ijtimoiy bozor tipidagi davlat uchun xos bo'lgan ob'ektiv jarayonlarini hisobga oluvchi ish bilan ta'minlanishining shakllanishi qo'yiladi. Bu o'z navbatida muayyan davr mobaynidagi qo'yilgan maqsadlarga erishishning real imkoniyatlari bilan cheklanmaydi. Ish bilan bandlik ijtimoiy rivojlanishning har bir bosqichiga xos turli ko'rinishi va shakllarida namoyon bo'ladigan o'ziga xos hodisadir. Ibtidoiy jamoa tuzumi jamiyat a'zolarining ish bilan to'liq bandligiga asoslangan edi. Uning boisi ishlab chiqaruvchi kuchlarning past darajada rivojlanganligida edi. Quldorlik va feodal formatsiyalar asosan qullar va krepostnoylarning ish bilan majburiy bandligiga asoslangan bo'lib quldorlar va krepostnoylar ishlamasdan hayot kechirar edilar. Doirasida inson xuquqiy jihatdan erkin bo'lgan va yollanma xodim sifatida namoyon bo'ladigan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan kapitalistik tuzumda ish bilan band bo'lmagan aholi mavjud bo'lishi muqarrardir. Bunday ish bilan band bo'lmaslik va noiloj ishsizlik shaklida bo'ladi. Sotsializm sharoitida to'liq ("yalpi") ish bilan bandlik e'lon qilingan bo'lib bu esa kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashgan majburligi bilan mustahkamlangan edi. Hozirgi vaqtda ish bilan band aholiga barcha yollanib ishlayotgan xodimlar, o'quvchilar, harbiy xizmatchilar bilan bir qatorda o'zini o'zi mustaqil ravishda ish bilan ta'minlaydigan fuqarolar va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan fuqarolar kiritilgan.

Aholining ish bilan bandlari: a) pul bilan yoki natura holdagi haq evaziga yollanib shuningdek o'z faoliyati evaziga qancha muddat haq yoki daromad olishdan qat'iy nazar, foyda yoki oilaviy daromad olish uchun yollanmasdan xaftasiga kamida ikki soat ish bajarganda; b) kasalligi yoki jarohatlanganligi tufayli, bemorlarga qarab turuvchilar; yillik mehnat ta'tili yoki dam olish kunlarida, o'z ish joyidan tashqarida ta'lim olgan

Bu kuchlarning ish bilan bandlikni rivojlantirishda yaqindan o'zaro yordam berishlari ish bilan bandlikning holatiga faol ta'sir ko'rsatib, uning sifat jihatlarining har

tomonlarni yaxshilanishiga yordam beradi. Bunday jihatlarga ish bilan band aholining ma'lumot va kasb-malaka tarkibi, uning tarmoq va demografik tuzilishi, yuqori ijtimoiy-iqtisodiy harakatchanlik, raqobatdoshlik va shu kabilar kiradi.

Mehnat - insonning o'ziga xos xususiyatlariga ega faoliyati bo'lib, harakatlarning anglatganligi, kuch-quvvat sarflanishi, natijadorlik, ijtimoiy foydalilik va hokazolar shular jumlasiga kiradi. Mehnat vaqt xususiyatiga ega, u bo'linadi va dam olish bilan almashinib turadi.

Mehnat ishchi kuchini ishlab chiqishda ishlatish jarayonidir. Ish bilan bandlik insonning mehnat qilish munosabati va mehnat sohasidagi ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq holda kechadigan ijtimoiy rivojlanishning muhim tomonlaridan biridir. Mehnatdan farqli o'laroq, ish bilan bandlikni kishilarning aniq; ish joyidagi amaliy faoliyatiga tenglashtirib bo'lmaydi. Ish bilan bandlik mehnatga layoqatli kishilarning ish bilan qanday ta'minlanganligini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, kishini ish bilan band hisoblash uchun u biron-bir jamoaning a'zosi bo'lishi yoki o'z ishini yaratishi kerak.

Ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismi bo'lgan aholini ish bilan bandligi siyosati uchta asosiy maqsadga erishishni nazarda tutadi:

- tarkibiy qayta qurishni rag'batlantirish asosida bo'shab qolgan xodimlarni qayta taqsimlash jarayonini jadallashtirish;
- ishsizlarni mehnat hayotiga juda tezlik bilan jalb qilish;
- ish qidirayotganlardan har birini ish bilan ta'min etish.
- Davlat aholini ish bilan ta'minlash siyosatining chora-tadbirlari quyidagi sohalar bo'yicha tabaqalashtirilgan:
- ta'sir ko'rsatish ob'ekti bo'yicha (umumiy va ixtisoslashgan chora-tadbirlar);
- mablag' bilan ta'minlash manbalari bo'yicha.

Aholini ish bilan ta'minlashga ta'sir ko'rsatish usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bevosita (ma'muriy) usullar: qonun yo'li bilan tartibga solish;
- mehnat qonunchiligi, jamoa shartnomalari;

- bilvosita (iqtisodiy) usullar: moliyaviy, monetar, fiskal (xazina) siyosati.
- Aholini ish bilan ta'minlashga davlatning ta'sir ko'rsatish turlari:
- passiv ta'sir ko'rsatish - ish bilan band bo'lmagan aholiga ijtimoiy yordam;
- faol ta'sir ko'rsatish - mehnat taklifini rag'batlantirish, mehnatga bo'lgan talabni rag'batlantirish, talab va taklifni muvofiqlashtirish chora-tadbirlari (axborot, maslahat xizmati ko'rsatish, kasbiy sohada maslahatlar berish, aholining kamroq raqobatbardosh guruhlari uchun bandlik dasturlarini ishlab chiqish va hokazolar), mintaqalarga yordam ko'rsatish chora-tadbirlari va shu kabilar.

Davlat bandlik siyosati doirasida mehnat bozorini tartibga solishda bandlik jamg'armalarining ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bandlik jamg'armasi xarajatlarini shartli ravishda to'rtta yo'nalish bo'yicha qismlarga ajratish mumkin:

1. Ishsizlik bo'yicha nafaqaga sarflanadigan mablag'lar, ishsizlarga moddiy yordam ko'rsatish, uzoq muddatli pensiyalar to'lash. Bularni passiv siyosat deb atash qabul qilingan.

2. Qayta tayyorlash va jamoat ishlariga sarflanadigan mablag'lar. Faol siyosatning mazkur shakli amaldagi qonunchilikdan kelib chiqadi, ya'ni bandlik sohadagi davlat xizmati uchun majburiy hisoblanadi.

3. Moliyaviy qo'llab-quvvatlashga, qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqa xarajatlarga mo'ljallangan mablag'lar. Aytib o'tilgan bu shakllarni birlashtirib turadigan tomon shuki, ular qonun bilan kafolatlanmagan. Shu bilan birga "moliyaviy qo'llab-quvvatlash" moddasiga doir xarajatlarni mehnat bozoridagi faol siyosat shakllariga kiritish qabul qilingan.

4. Bandlik xizmatlarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan mablag'lar (ularni ta'minlash, kapital mablag'lar, reklama, "Bandlik" axborot xizmati).

Ishsizlarga uzoq muddatli pensiyalar tayinlanishi munosabati bilan Pensiya jamg'armasi xarajatlari bandlik jamg'armasidan qoplanadi. Aholining Bandlik jamg'armasiga badallar to'lashi uchun sug'urta tarifi mehnat haqiga to'lashga mo'ljallangan mablag'larning 1,5%ini tashkil etadi. Badallik uchun badallar to'lashdan

nogironlarning jamoat tashkilotlari, nogironlar va pensionerlarning jamoat tashkilotlari, ularga tegishli bo`lgan korxonalar, shuningdek, diniy birlashmalar ozod qilinadi.

Hozirgi vaqtda O`zbekistonda mehnat bozorini boshqarishda bir qator yo`nalishlar mavjud bo`lib, ular aholi bandligi davlat xizmatiga taalluqlidir. Bu xizmatning asosiy vazifasi mehnat bozori haqidagi axborotni tarqatish hisobiga mehnat bozorining faoliyat ko`rsatish samaradorligini oshirishdan iborat.

O`zbekistonda aholi bandlik xizmati 1991 yilda tashkil etilgan edi. Respublika aholi bandlik xizmati ishining asosiy tamoyillari xalqaro amaliyotga muvofiq keladi. Hozirgi vaqtda O`zbekiston aholi bandligi xizmati mintaqalarda (viloyatlar, shahar va tumanlarda) ishlab turibdi.

Aholining bandligiga ko`maklashish bilan bog`liq xizmatlar bandlik xizmati organlari tomonidan bepul ko`rsatiladi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi bandlikning xususiy xarakterdagi nodavlat tuzilmalari ham tashkil etilishiga imkon bermoqda. Bular xodimlarni tanlash bo`yicha tijorat agentliklari, o`quv yurtlari huzuridagi muassasalar, diniy idoralar huzuridagi va hokazo muassasalardir. Mehnat birjalari ham ishlab turibdi. Tajribalar ko`rsatishicha, mehnat birjalari mehnat bozorining to`la ma`noda tartibga soluvchi ta`sirchan vositasi bo`lib qolishi mumkin.

Mehnat birjalari mehnat bozori haqidagi, uning ahvoli va istiqboli to`g`risidagi axborotlarni to`playdi. Bozor tuzilmasi sifatidagi mehnat birjasi xilma-xil vazifalarni bajaradi.

Aholi bandligini nodavlat darajada tashkil etish sohasidagi tijorat tuzilmalarining boshqa shakllari ham mavjud.

1.2.Aholini ish bilan ta'minlashning demografik xususiyatlari.

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng ko'p sonli aholi va mehnat resurslariga ega mamlakatdir. Band aholi soni bo'yicha ham mamlakatimiz markaziy osiyoda yetakchilik qiladi. Aholi soni 2012 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 29,6 mln. kishini tashkil etdi yoki 2006 yilga nisbatan deyarli 3 mln. kishiga ko'paydi. Mehnat resurslari soni esa 14,8 mln.dan 16,7 mln. kishiga yoki 118,9 foizga yetdi. Huddi shu davr ichida ish bilan band aholi soni 10,5 mln. kishidan 11,6 mln. kishiga ortib yoki 110,5 foizga o'sdi. Tahlil shundan dalolat bermoqdaki, aholi va mehnat resurslari soni band aholiga nisbatan birmuncha yuqori sur'atlarda ko'paymoqda.(1.2.1-jadval)

1.2.1-jadval. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlarni mintaqalar o'rtasida aholi bo'yicha taqsimlanishi

№	Doimiy aholi		Mehnat resurslari		Band aholi		Yalpi hududiy mahsulot mlrd.so'm	Yalpi hududiy mahsulot jon boshiga	Band aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot
	Soni ming kishi	Salm og'i foizda	Soni ming kishi	Salm og'i foizda	Soni ming kishi	Salm og'm foizda			
O'zbekiston Respublikasi	29555,4	100	16726,0	100	11628,4	100	61831,2	2163,5	5317,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1692,8	5,8	945,9	5,7	580,8	4,9	1389,8	826,2	2395,0
Viloyatlar									
Andijon	2714,8	9,2	1561,2	9,4	1112,0	9,6	3679,6	1343,2	3309,3
Buxoro	1707,4	5,8	987,6	5,9	768,1	6,6	3376,0	2146,7	4396,0
Jizzax	1186,6	4,0	652,1	3,9	381,6	3,3	1389,1	1205,9	3636,1
Qashqadaryo	2777,8	9,4	1493,4	8,9	971,6	8,4	4865,1	1933,2	5005,1
Navoiy	881,2	3,0	531,6	3,2	407,9	3,5	3276,6	3797,5	8031,9
Namangan	2420,6	8,2	1350,6	2,1	815,3	7,2	2426,6	1030,0	3222,1
Samarqand	3306,2	11,3	1815,7	10,9	1229,9	10,6	3813,1	1186,8	3100,0
Surxondaryo	2218,9	7,5	1174,1	7,0	784,4	6,8	2229,3	1077,1	2839,5
Sirdaryo	739,5	2,5	420,7	2,6	319,9	2,8	1008,3	1372,5	3150,
Toshkent	2671,0	9,0	1549,7	9,3	1155,4	10	5571,1	2167,1	4823,4
Farg'ona	3280,8	11,1	1824,2	11,0	1340,4	11,6	4095,5	1344,9	3056,0
Xorazm	1629,1	5,5	900,4	5,4	606,7	5,3	1949,1	1159,9	3202,6
Toshkent shahri	2309,3	7,8	1519,2	9,1	1153,8	10	9820,1	3682,5	8509,5

Manba:O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Bunday holat ko'p sonli aholiga ega va mehnat resurslariga boy har qanday mamlakat uchun tabiiyki qo'shimcha muammolar keltirib chiqaradi. O'zbekiston mintaqalarida aholi, mehnat resurslari va aholi bandligiga xos nomutanosibliklar ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyat murakkab bo'lgan Quyi Amudaryo, Mirzacho'l va Janubiy mintaqalarida yechimini kutayotgan masalalar mavjud.

Xususan, aholi soniga ko'ra yetakchi o'rinni egallagan Zarafshon, ayniqsa, Farg'ona vodiysi mintaqalari mehnat resurslari soniga binoan ham respublikada yuqori o'rinda turadi. Shu bilan birga, mazkur mintaqalar o'rtasida band aholi soni bo'yicha ma'lum nomutanosibliklar ko'zga tashlanadi. Jumladan, band aholi soni va salmog'iga binoan vodiy mintaqasida Farg'ona viloyati yetakchilik qiladi. Undan keyingi o'rinlarni Zarafshon mintaqasidagi Samarqand viloyati poytaxt mintaqasidagi Toshkent viloyati egallaydi. Mirzacho'l mintaqasidagi Sirdaryo viloyati barcha ko'rsatkichlar bo'yicha oxirgi o'rinni egallaydi. SHu bilan birga, Jizzax viloyati esa mehnat resurslari soniga ko'ra Navoiy viloyatidan oldingi o'rinda turadi.

Biz statistik ma'lumotlarga asoslangan holda aholi, mehnat resurslari va band aholi soni bilan ushbu viloyatlarga to'g'ri keluvchi yalpi hududiy mahsulot o'rtasida mavjud bo'lgan aloqani aniqlash va baholashga harakat qilib ko'rdik. O'z-o'zidan ma'lumki, aholi soni bilan mehnat resurslari soni o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqadorlik mavjud. Faqat ayrim hollardagina ushbu ko'rsatkichlar orasida vujudga kelgan ma'lum nomutanosibliklar ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan pensionerlar va o'smirlar hisobiga paydo bo'ladi. Lekin O'zbekistonda keyingi yillarda o'smirlar mehnatidan foydalanishga chek qo'yilganligi sababli ushbu kategoriyadagi aholini mehnat resurslari soni va salmog'ida ishtirok etishi sezilarli tarzda kamaydi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy ishlab chiqarishda band pensionerlarning salmog'i 2-2,5 gacha o'zgarib turibdi.

Mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, band aholidan foydalanish ko'lamini oshirish va yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo'shilishning muhim manbai bo'lib hisoblanadi. Ish bilan band aholidan foydalanish samaradorligini oshirishni ta'minlashga qaratilgan

davlat siyosatining yo`nalishlaridan yana biri “Aholini ish bilan ta’minlash” hududiy dasturlarining amalga oshirilishi bilan bevosita bog`liq. Mazkur dasturlar ijrosi natijasida respublikada har yili bir necha yuz minglab yangi ish o`rinlari yaratilmoqda. Xususan, 2007-2012 yillar davomida respublikada yaratilgan yangi ish o`rinlari soni o`rtacha yiliga 950 mingtani tashkil etdi.

- Band aholidan samarali foydalanishda davlatning quyidagi funksiyalarini alohida ko`rsatish mumkin:
- bandlikni ta’minlash bo`yicha maxsus dastur qabul qilish va uni amalga oshirish;
- yangi ish o`rinlarini yaratish va aholi bandligini oshirish maqsadida me’yoriy hujjatlarni qabul qilish;
- tarmoq va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda yangi ish o`rinlarini yaratishni hisobga olish;
- talabdan kelib chiqqan holda kollejlar va oliy ta’lim muassasalari joylashuvi va ularning ixtisoslashuvini ta’minlash;
- ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirish maqsadida imtiyozli bank kreditlarini berish va boshqalar.

Mamlakatimiz mintaqalarida ish bilan ta’minlash darajasi turlichadir. Chunki har bir mintaqaning investisiya muhiti va unga xos geografik qulayliklari mavjud.

Yurtimizning o`ziga xos xususiyatlari, avvalo, demografik jihatlariga ko`ra, aholi bandligi masalalari o`zining dolzarbligini, o`tkiriligini saqlab qolayotir. Oliy Majlis qo`shma palatalari tomonidan tasdiqlangan “2012 yilda ish o`rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturi”ga binoan 2012 yilda 967 mingdan ortiq ish o`rni yaratish, ularning qariyb 600 mingtasini qishloq joylarda tashkil etish nazarda tutilgani maqsadga muvofiqdir. Yangi ish o`rinlarining 64 foizidan ortig`i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini yanada kuchaytirish, xususan, ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish, 28 foizidan ziyodida esa yangi korxonalar tashkil etish, kasanachilikning turli shakllarini kengaytirish orqali erishish ko`zda tutilgan. Bunday ijobiy ishlarning natijasi

xalqimiz farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladi va mamlakatimiz taraqqiyotida o'z samarasini beradi.

Aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikning oldini olish bugungi kunda har bir mintaqada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda har bir hududning o'zi ijtimoiy muammolarni hal etish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy sharoitlari hamda imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mehnat resurslari tinimsiz o'rganilib va tahlil etilib borilishi talab qilinadi. Mintaqada bozor sharoitida aholi bandligini oshirish yo'llari borasida davlat va nodavlat sektorlarida ishga joylashtirish borasida aniqlangan muammolar va kamchiliklar mavjud.

Mintaqalarda avvallari asosiy ish bilan band aholi qishloq xo'jaligiga to'g'ri kelgan bo'lsa, endilikda sanoat tarmog'i ham o'sib borishi hisobiga yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

Mintaqalarda ish bilan band aholini foydalanish samaradorligini oshirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda moliyaviy resurslar manbalarini aniqlash;
- mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mavjud salohiyat hamda ularning mahsuloti va xizmatlariga bo'lgan talabdan kelib chiqqan holda shakllantirish;
- mintaqalarning moliyaviy va investisiya faolligi hamda jozibadorligini aniqlashning uslubiy asoslarini ishlab chiqish;
- viloyat va tumanlar kesimida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy holat va moliyaviy barqarorlikni baholash;
- viloyatning ichki moliyaviy resurslarini jalb etish va undan foydalanish samaradorligini oshirish;
- viloyatda tarkibiy-moliyaviy resurslar, investisiyalash va modernizasiya qilishning ustuvor strategiyasini ishlab chiqish;
- viloyat moliyaviy resurslaridan foydalanishning samarali yo'nalishlarini amalga oshirish va unga xos mexanizmlarini aniqlash.

Xulosa o`rnida shuni ta'kidlash kerakki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida dunyodagi ko`pgina mamlakatlarda ishsizlik ortib borayotgan jarayonda mamlakatimizda oqilona siyosat tufayli ish bilan band aholi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa, davlatimiz tomonidan olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, aholi turmush sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasidir.

1.3.O`zbekiston Respublikasida aholini ish bilan bandlik siyosati

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat aholini ish bilan ta'minlash va ishsizlikni bartaraf etish bo'yicha izchil ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib boradi. Chunki ish bilan bandlikni oshirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo`shilishning muhim omili hisoblanadi. Ish bilan bandlik sohasida davlat siyosatining yuritilishi O`zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biridir.

O`zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mehnat qilish va ishni erkin tanlash huquqini amalga oshirishda barcha fuqarolarga jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, mansab mavqei, dinga munosabati, e'tiqodi va jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik jihatlari hamda ular mehnatining natijalariga bog`liq bo`lmagan boshqa holatlardan katiy nazar teng imkoniyatlarni ta'minlash;
- kishilarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo`llab-quvvatlash va rag`batlantirish, ularda mehnat qilish va hayot kechirishda munosib sharoitlarni ta'minlaydigan unumli va ijodiy mehnat qobiliyatini rivojlantirishga ko`maklashish;
- mehnat qilishning ixtiyoriyligi;
- ish bilan ta'minlanish sohasida ijtimoiy kafolatlar berish va aholini ishsizlikdan himoya qilishni ta'minlash;
- ijtimoiy himoyaga o`ta muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolar uchun mavjud ish joylarini saqlab qolayotgan va yangi ish joylarini yaratayotgan ish beruvchilarni rag`batlantirish;
- ish bilan ta'minlash sohasidagi tadbirlarni ijtimoiy va iqtisodiy siyosatning boshqa yo`nalishlari bilan muvofiqlashtirish;
- aholini ish bilan ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishda davlat organlari, kasaba uyushma-lari, xodimlarning vakillik organlari va ish beruvchilarning o`zaro hamkorligi;

- aholini ish bilan ta'minlash muammolarini hal qilishda davlatlararo hamkorlik².

Respublikada olib borilayotgan islohotlarning tarkibiy qismi hisoblangan ish bilan bandlik siyosati quyidagi asosiy maqsadlarga erishishni nazarda tutadi:

- tarkibiy qayta qurishni rag'batlantirish asosida bo'shab qolgan xodimlarni qayta taqsimlash jarayonini jadallashtirish;
- ishsizlarni mehnat hayotiga juda tezlik bilan jalb etish;
- ish qidirayotganlardan har birini ish bilan ta'minlash.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun esa davlat tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

1. Agar ishsizlik davriy xususiyat kasb etsa, bunda davlat budget, fiskal, kredit-pul vositalarini ishga soladi, ya'ni:

- ish bilan ta'minlashni kuchaytirish uchun ishlab chiqarishga ko'prok mablag' sarflaydi;
- tadbirkorning manfaatdorligini oshirish uchun ssuda hamda kreditlarning foiz stavkalarini pasaytiradi;
- ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarga solinadigan soliqlarni kamaytiradi.

2. Ishsizlikning friktsion va yashirin turlari o'sganda davlat:

- qaytadan kasb o'rgatadi;
- ta'lim berish tizimini kengaytiradi;
- bo'sh ish joylari haqidagi axborotlarni keng tarqatadi;
- mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalarni ko'paytiradi.

Aholini ish bilan ta'minlashga ta'sir ko'rsatish usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bevosita (ma'muriy) usullar - qonun yo'li bilan tartibga solish;
- bilvosita (iqtisodiy) usullar - moliyaviy, monetar, fiskal siyosati. Aholini ish bilan ta'minlashga davlatning ta'sir ko'rsatishning quyidagi turlari mavjud:

²O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasi, Toshkent, 1998.

- passiv ta'sir ko'rsatish - ish bilan band bo'lmagan aholiga ijtimoiy yordam;
- faol ta'sir ko'rsatish - mehnat taklifini rag'batlantirish, mehnatga bo'lgan talabni rag'batlantirish, talab va taklifni muvofiqlashtirish chora-tadbirlari (axborot, maslahat xizmati ko'rsatish, kasbiy sohada maslahatlar berish, aholining kamroq raqobatbardosh guruhlari uchun bandlik dasturlarini ishlab chiqish va hokazolar), mintaqalarga yordam ko'rsatish chora-tadbirlari va shu kabilar.

Davlatning faol ta'sir ko'rsatish siyosati hududiy mehnat bozorlari holatidan kelib chiqadi. Agar hududda ishchi kuchi ortiqchaligi (profitsit) ro'y berib, taklif hajmi talabdan yuqori bo'lsa, u holda davlat ishchi kuchi taklifini kamaytirish va unga bo'lgan talabni ko'paytirishni rag'batlantirish siyosatini yuritadi. Aksincha, agar hududda ishchi kuchi tanqisligi (defitsit) kuzatilsa, u holda davlat ishchi kuchi taklifini ko'paytirish va unga bo'lgan talabni kamaytirish yuzasidan aniq, chora-tadbirlarni belgilaydi.

Bugungi kunda respublikamizning deyarli barcha hududlarida ishchi kuchi ortiqchaligi mavjud va ishchi kuchi bozorida taklif talabdan yuqoridir. Shu bois ishlashni xohlovchilarning mehnat bozorida erkin harakat qilishlari va mustaqil ish bilan ta'minlanishlari uchun davlat fuqarolarga bir qancha kafolatlarni nazarda tutadi. Ya'ni, davlat:

- ish bilan ta'minlash turi, shu jumladan turli mehnat tartibidagi ishni tanlash erkinligi;
- ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etish va mehnat shartnomasini g'ayriqonuniy ravishda bekor qilishdan ximoyalanish;
- maqbul keladigan ish tanlash va ishga joylashishga bepul yordam berish;
- har kimga kasb va ishga eta bo'lish, mehnat qilish va ish bilan ta'minlanish shart-sharoitlari, mehnatga haq to'lash hamda xizmat pog'onasidan yuqorilab borishda teng imkoniyatlar yaratish;
- yangi kasbga (mutaxassislikka) bepul o'qitish, mahalliy mehnat organlari yoki ulariing yo'llanmasi bilan boshqa o'quv yurtlarida stipendiya to'lab malakasini oshirish;
- boshqa joydagi ishga qabul kilinganda sarf kilingan moddiy xarajatlar uchun qonun hujjatlariga muvofiq kompensatsiya to'lash;

- haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish uchun muddatli mehnat shartnomalari tuzish imkoniyatini kafolatlaydi.³

Davlat tomonidan qo'llaniladigan tartibga soluvchilarning (iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy va huquqiy) o'rni mehnat bozorida ziddiyatlarni yumshatish, ishchi kuchiga talab va taklif konyukturasidagi nomuvozanat va ularni inqiroziy

buzilish oqibatlaridan (yalpi ishsizlikning paydo bo'lishi, ijtimoiy xo'jalikda ishga joylashishga imkoniyat yo'qligi, daromadlarning pasayishi va boshqalardan) ogohlantirish yo'li bilan belgilanadi. Ba'zida bozor munosabatlarining ijtimoiy oqibatlari natijasida shunday sharoitlar shakllanadiki, unda qishloq aholisi bir qismining mehnat qilish va daromad olish huquqlariga ega bo'lishida jiddiy qiyinchiliklar vujudga kelishi natijasida turmush darajasi pasayadi. Iqtisodiy tartibga soluvchilar (soliqlar, mehnat haqi, moliya-kredit vositalari, investitsiyalarning jalb etilishi, ish bilan bandlikka ko'maklashish jamg'armasi va boshqalar) ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaratishga qaratilgan. Unda qishloq ishchi kuchining harakati talab va taklifga muvofiq har bir mazkur davrda quyilgan maksad va vazifalarni amalga oshirishda sodir bo'ladi. Tartibga soluvchilarning eng muhim yo'nalishi shundan iboratki, ularning majmuasi orqali mehnat bozorida nisbiy muvozanatga erishish mumkin.

Mamlakat mehnat potentsinalidan samarali foydalanish va ishsizlikni bartaraf etishga qaratilgan davlat siyosatining yana bir yo'nalishlaridan biri "Aholini ish bilan ta'minlash" hududiy dasturlarining amalga oshirilishidir. Mazkur dastur Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar miqyosida ishlab chiqilib, unda iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ish o'rinlari yaratish parametrlari belgilanadi.

Aholini ish bilan ta'minlashga qaratilgan hududiy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida respublikada har yili bir necha yuz minglab yangi ish o'rinlari barpo etilmoqda.

2009 yilda ko'rilgan amaliy choralar natijasida mamlakatimizda 940 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi, ularning 500 mingga yaqini qishloq joylarda tashkil

³O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni 6-moddasi, Toshkent, 1998.

etildi. Kichik biznes sohasida 390 mingdan ziyod, shu jumladan, xizmat ko`rsatish sohasida 270 mingdan ortiq yangi ish o`rinlari ochildi⁴.

Mehnat bozorida davlatning amalga oshiradigan siyosatlaridan yana biri ijtimoiy himoya siyosatidir. Unga ko`ra davlat mehnat bozorida raqobatbardosh bo`lmagan va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish bo`yicha chora-tadbirlar ko`zda tutadi. Ya`ni, aholini ish bilan ta`minlashga ko`maklashish maqsadida korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo`lmagan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilanadi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 1 dekabrda 504-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo`lmagan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash tartibi to`g`risida"gi Nizomga muvofiq fuqarolarning ushbu toifasiga quyidagilar kiradi:

- o`n to`rt yoshga to`lmagan bolalari va nogiron bolalari bor yolg`iz ota, yolg`iz onalar hamda ko`p bolali ota-onalar;
- ta`lim muassasalarini tamomlagan yoshlar, ular ta`lim muassasasini tamomlagandan keyin bir yil davomida;
- O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Favkulodda vaziyatlar vazirligi qushinlaridan bo`shatilganlar;
- nogironlar va pensiya yoshiga yaqinlashib kolgan shaxslar;
- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qarori bilan tibbiy yo`sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar.

Nogironlar uchun ish joylarining eng kam miqdori xodimlarning ro`yxatdagi o`rtacha soni kamida 34 kishini tashkil etadigan korxonalar uchun, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari uchun esa ish joylarining eng kam miqdori

⁴Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O`zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasidan. "Xalq so`zi" – 2010 y. 29 yanvar. №21.

xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha soni 100 va undan ortiq kishini tashkil etadigan korxonalar uchun belgilanadi.

Nogironlar uchun barpo etiladigan yoki ajratiladigan ish joylarining eng kam miqdori xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha sonining kamida 3,0 %i miqdorida belgilanadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari uchun korxonalar tomonidan barpo etiladigan yoki ajratiladigan ish joylarining eng kam soni aniq, korxonalarining salohiyati va ularning moliyaviy ahvolidan kelib chiqib belgilanadi. Bunda ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun, nogironlardan tashqari, barpo etiladigan (ajratiladigan) ish joylari soni xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha sonining 4,0 %igacha belgilanadi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar ko'rsatilgan toifalarining xarakterli talablariga muvofik, keluvchi mehnat sharoitlarini ta'minlovchi ish joyi ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun barpo etilgan (ajratilgan yoki band qilib quyilgan) ish joyi hisoblanadi, ya'ni:


- nogironlar uchun - salomatligi va mehnat faoliyatiga nisbatan quyiladigan belgilangan aksil ko'rsatkichlar hisobga olingan holda xodimga mehnat operatsiyalarini to'siqsiz bajarish imkonini beruvchi ish joylari;
- kasb-xunar ta'limiga ega bo'lmagan yoshlar uchun, ular umumta'lim muassasalarini tamomlaganlaridan keyin bir yil davomida - shogirdlik ish joylari yoki maxsus kasb-xunar tayyorgarligini talab qilmaydigan ish joylari;
- o'rta maxsus va kasb-xunar ta'lim muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek harbiy xizmat qo'shinlaridan bo'shatilgan shaxslar uchun ular o'quv yurtlarini tamomlaganlari yoki bo'shatilganlaridan keyin bir yil davomida -ularning kasb-xunar tayyorgarligiga muvofiq keluvchi ish joylari;
- yolgiz ota, yolgiz onalar hamda ko'p bolali ota-onalarga - bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlarini bajarishni birga qo'shib olib borish imkonini beruvchi o'zgaruvchan jadvali ish joylari;
- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod kilingan yoki sud qarori bilan tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun - maxsus malakani talab qilmaydigan har qanday ish.

Qonunchilikka ko`ra, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun barpo etilgan yoki ajratilgan mehnat o`rinlariga joylashtirish ish beruvchi tomonidan tuman (shahar) bandlikka ko`maklashish markazining yo`llanmasi bo`yicha yoki mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotda bozor qonunlari va talablariga muvofiq ravishda ro`y beradigan o`zgarishlar aholining ish bilan bandligi kontseptsiyasining o`zgarishini keltirib chiqaradi. Mulkchilik munosabatlari birlamchidir. Ular ikkilamchi ishlab chiqarish munosabatlari sifatida namoyon bo`ladigan ish bilan bandlik munosabatlarini belgilaydi. Hozirgi vaqtda ishlab chiqilayotgan ish bilan bandlikning yangi kontseptsiyasi uyda, uy xo`jaligida bajariladigan mehnat faoliyati shakllarini mutlaqo qonuniy va ijtimoiy e`tirof etilgan shakllar sifatida legallashtiradi.

Shunday qilib, hozirgi paytda O`zbekistonda davlatning uzoq muddatli strategiyasi mavjudligi bozor iqtisodiyotining ehtiyojlariga javob beradigan ish bilan bandlik zamonaviy paradigmasining qaror topishi yuz bermoqda (1.3.1-chizma).

1.3.1-chizma. Aholining ish bilan bandligi darajasini yaxshilash yo`nalishlari



Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida aholining ish bilan bandligini tashkil qilish muammosi nazariy va amaliy jihatlarda yangicha ma'no kasb etadi. Mehnat bozorini yanada rivojlantirish aholining ish bilan bandligini tartibga solishda faol o'rinni egallaydi. Mehnat bozorida asosiy milliy resurs – ishchi kuchi shakllanadi hamda korxonalar, tarmoqlar, viloyat va tuman mintaqalari bo'yicha taqsimlanadi.

Mehnat bozori iqtisodiy faol aholining ish bilan bandligini, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasiga jalb etilishini ta'minlaydi. U xodimning o'zi uchun yanada mosroq ish joyiga o'tishini yengillashtiradi. Mehnat bozori orqali korxonalar zarur miqdorda va talab qilingan sifatga ega ishchi kuchi bilan ta'minlanadi. Mehnat bozori qanday kadrlar, mutaxassislar, kasblarga talab borligini, ulardan qandaylari ortiqchaligini ko'rsatadi. Bu ko'pgina mamlakatlar uchun dolzarb muammodir. Uning hal etilishi jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga qodir samarali iqtisodiyotning yaratilishini anglatadi.

Ish bilan bandlikni ishchi kuchiga talabni kengaytirishga ularni foydali faoliyatga jalb qilish ko'lamlari, shart-sharoit va shakllarini ta'minlash, ish bilan band bo'lgan xodimlarni shakllantirish, taqsimlash, foydalanish, bo'shatish, qayta tayyorlash va qayta taqsimlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar va harakatlar yig'indisi, deb ta'riflash mumkin.

Bu kontseptsiya doirasida to'la oqil (ratsional) va samarali bandlik farqlanadi. Ish bilan "to'liq" bandlik sotsializmdagi mehnatning umumiyliги va majburiyligining aniq ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan amalga oshirilishidir. U mehnatga layoqatli aholiga ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishning haqiqiy imkoniyatlari berilishi bilan bog'liq. Yuqorida aytib o'tilgan kamchiliklarni hisobga olib, ish bilan to'liq bandlik darajasi bozor iqtisodiyotiga moslashib boradi.

Mehnatga qobiliyatli aholini ijtimoiy xo'jalikka jalb qilishning eng yuqori darajasi sifatida talqin qilish ham o'zgarib boryapti. Ish bilan to'liq bandlikka aholini jalb qilishning har qanday darajasida erishish mumkin, bunda u aholining ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga muvofiq kelishi, taklif etilayotgan ish o'rinlari iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq oqilona bo'lishi lozim. Bu o'rinda iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ish o'rnini deganda shunday ish o'rnini tushuniladiki, u

insonning yuksak mehnat unumdorligiga erishishi, o'zi va oilasining yaxshi yashashi uchun yetarli bo'ladigan daromadga ega bo'lishi tushuniladi. Shu bilan birga bu ish o'zni uning salomatligiga zarar yetkazmasligi va insoniy qadr-qimmatini yerga urmasligi kerak.

Shunday qilib, ish bilan to'liq bandlik mehnatga qobiliyatli barcha fuqarolarni kasbiy mehnat sohasiga jalb qilishni anglatmaydi. Inson o'z istagi bo'yicha ijtimoiy foydali mehnatda bandlik sohalaridan birini (kasbiy mehnatni, uy xo'jaligini xususiy korxonalar va xususiy tadbirkorlik va shu kabilarni) tanlashga haqlidir. Biroq tartibga soluvchi asosiy faoliyat turi daromad keltiruvchi, shaxs farovonligini oshiruvchi va rivojlantirishini ta'minlovchi kasbiy mehnat bilan band bo'lishdir. Kasbiy mehnat bilan band bo'lish darajasi xodimlar umumiy sonining ular ishlayotgan korxonalar qanday tashkiliy-huquqiy shaklga ega bo'lishidan qat'i nazar mehnat resurlari soniga nisbati bilan belgilanadi. Buning ma'nosi shuki, aholining ish bilan bandlikdagi mazkur proporsiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish manfaatlari, uni jadallashtirish natijalari, fan-texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligini oshirish manfaatlariga to'liq mos kelishi zarur. Shu bilan birga sog'lom avlodni yetishtirishga, yuqori malakali, yaxshi ta'lim olgan serharakat xodimlarni tarbiyalashga qulay sharoit yaratib berilsa, aholining bunday bandligining proporsiyasi eng maqbul deb hisoblanadi.

Iqtisodiy islohot jarayonida mehnat samaradorligining ortishiga qarab, aholining mehnat bilan bandligi darajasi umuman mamlakat bo'yicha pasayish tendentsiyasiga ega. Yaqin kelgusida respublikamizda ish bilan bandlikning rivojlanish xususiyatlari ana shunday kechadi. Bu yerda yuqori samarali iqtisodiyot nisbatan kamroq miqdordagi xodimlarga ehtiyoj sezadi, shu bilan birga aholining ishchi o'rinlariga bo'lgan ehtiyoji ham biroz kamayadi, chunki mehnat bilan ijtimoiy foydali bandlikning boshqa sohalariga qiziqish ortadi.

Kishilarning ijtimoiy zarur ish bilan bandlikka bo'lgan ehtiyoji va uni amalga oshirish imkoniyatini rejali tartibga solib borish lozim. Bundan maqsad insonning faoliyat ko'rsatish, shart-sharoitlarni yaxshilash va iqtisodiyotning samarali ishlashini ta'minlashdir.

Ish bilan bandlik maqomi ijtimoiy foydali faoliyatda ishtirok etuvchi mehnat resurslarining bir qismi uchun belgilanadi. Bular daromad olish maqsadi bilan tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish uchun ish kuchini taklif qiladigan kishilar guruhi, shuningdek, ijtimoiy foydali faoliyatda ishtirok etsa ham bevosita pul daromadi keltirmaydigan aholi guruhi yoxud ne'matlar ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish bilan bevosita bog`liq daromad keltiradigan kishilar guruhlaridan tashkil topadi.

Birinchi guruhga iqtisodiyotning davlat sektorida ish bilan band bo`lgan korporativ, aktsiyadorlar jamiyatlari va xususiy sektorda ishlaydigan fuqarolar kiradi. Ikkinchi guruhga ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta`lim oladigan o`quvchilar, mamlakat qurolli kuchlarining xizmatchilari kiradi.

Shunday qilib, ish bilan band aholiga yollanib ishlaydigan fuqarolar, shu jumladan, to`liq yoki noto`liq ish kuni (hafta) mobaynida haq olib ish bajaradigan, tegishli shartnoma, bitim bilan tasdiqlangan haq to`lanuvchi ishga ega shaxslar, hamda kasalligi, ta`tilga chiqqanligi munosabati bilan ishda bo`lmagan fuqarolar kiradi. O`zini mustaqil ravishda ish bilan ta`minlaydigan shaxslar, shu jumladan, xususiy tadbirkorlar va fermerlar, harbiy qismlardagi qo`shin turlarida xizmat qilayotgan shaxslar, o`quvchilar ham ish bilan band kishilar jumlasiga kiradi.

Ish izlayotgan, ishini o`zgartirayotgan, vaqtincha ishlamayotgan aholi va ishdan ajralgan holda o`qimayotgan, ishning mavsumiy ekanligi tufayli vaqtincha ishlamayotgan aholi iqtisodiy faol ish bilan band bo`lmagan aholi guruhiga mansubdir. Ishsiz maqomiga ega bo`lgan shaxslar ham ish bilan band bo`lmagan iqtisodiy faol aholi jumlasiga kiradi.

Ish bilan bandlik munosabatlari iqtisodiy, demografik va ijtimoiy jarayonlar bilan bog`liq. Ish bilan bandlikning iqtisodiy mazmuni xodimning o`z mehnati bilan o`ziga munosib hayot kechirishni ta`minlash bilan bir qatorda ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishni ham ifodalaydi.

Jamiyatning har bir a`zosi uchun munosib daromadga ega bo`lib, o`z sog`lig`ini saqlash uchun yetarli imkonga ega bo`lish, ijtimoiy ishlab chiqarishning usuliga mos keladigan ma`lumot va kasb darajasini egallashni ta`minlaydigan bandlikni aholining samarador bandligi deb hisoblash mumkin.

Ish bilan bandlikning samaradorligini davlat taraqqiyotining mafkurasi aks ettiradigan ko`rsatkichlar bilan tavsiflab berish mumkin. Bular mehnat resurslarining ijtimoiy foydali faoliyatida ishtirok etish xususiyatlariga asoslangan taqsimlash proporsiyalaridan iboratdir. Ular mehnat unumdorligining o`shish darajasi, aholining ishga bo`lgan ehtiyoji qondirilishi va ish bilan to`liq bandlikka erishilishi kabi ko`rsatkichlar bilan ifodalaniladi. Chunki ijtimoiy mehnat unumdorligi qanchalik yuqori bo`lsa, jamiyatda xodimlarning daromadlari va moddiy shart-sharoitlar shunchalik ko`proq to`planadi. Ayni vaqtda mehnat sohasini texnik-tashkiliy tomonidan takomillashtirish, kadrlar malakasini oshirish, aholi guruhlarining mehnat va turmush sharoitining o`ziga xos tomonlarini hisobga olish imkonini beradi.

Ish bilan bandlik samaradorligining xususiyatlaridan yana biri mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan ta`minlanganlik darajasidir. Iqtisodiy jihatdan bu ko`rsatkich aholining ish va ish o`rinlariga bo`lgan ehtiyojini aks ettiradi.

Ish bilan bandlik samaradorligining uchinchi xususiyati ishlovchilarning mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlari bo`yicha taqsimlash tuzilmasidan iboratdir. Hozirgi vaqtda aholining ish bilan bandligi bo`yicha iqtisodiyotdagi tarmoq tuzilishi mavjud jamiyat mehnat potentsialidan foydalanish samaradorligi darajasi pastligini aks ettiradi va u tubdan o`zgartirishga muhtojdir.

Nihoyat, ish bilan bandlik samaradorligining to`rtinchi xususiyati ishlovchilarning kasb-malaka guruhlariga bo`linishi hisoblanadi. U ish bilan band aholining kasb-malaka guruhlariga bo`yicha taqsimlanishi hamda malakali xodimlarga bo`lgan ehtiyoj bilan mutanosiblik darajasini aks ettiradi.

Davlatning to`lov talabini ko`paytirishga yo`naltirilgan xilma-xil usullar vositasida iqtisodiyotga aralashuvi orqali iqtisodiy faollikni rag`batlantirish va buning natijasida ish bilan bandlikni kengaytirishga erishish mumkin. Bunda hal qiluvchi rol, Keyns nazariyasiga ko`ra, xususiy sarmoya qo`yilmalarini davlat tomonidan rag`batlantirish va tartibga solish hisoblanadi. Sarmoya qo`yilmalarini kengaytirish ishlab chiqarishni rivojlantirish asosida aholining ish bilan bandligini oshirishni anglatadi. Ammo, faqat 40 va 50-yillarga kelib, keynschilik "ish bilan to`la bandlik" shiori asosida burjua iqtisodiy nazariyasi va amaliyotining tashkilotchilariga aylandi. 40-yillar o`rtalarida

ishsizlikni tartibga solish bo'yicha paydo bo'lgan rasmiy hukumat hujjatlari va qonunchilik, odatda ish bilan to'liq bandlikni miqdor jihatdan aniqlamagan. U, masalan, inglizlarning oq kitobi "Ish bilan bandlik siyosati" (1944 yil) va Amerikaning "Ish bilan bandlik to'g'risida hujjat" larida (1946 yil) ham yo'q. Urushdan keyingi "Ish bilan to'liq bandlik" siyosati aslini olganda ishsizlikni tugatishni maqsad qilib qo'ymagan. Ishsizlikning 2 - 4% doirasida, albatta, mavjud bo'lishini burjua iqtisodchilari minimal yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan miqdor deb qarashgan.

Ko'rsatkichning pastroq bo'lishi "mehnat bozorining normal ishlashiga" muvofiq kelmaydigan, ishchi kuchi talab va taklifining optimal nisbatini buzadigan holat sifatida baholangan. 70-yillar oxirigacha G'arbiy Evropadagi 2-3% ishsizlik va AQShdagi 4,0% ishsizlik davlat siyosati sifatida qabul qilingan. Hatto sotsial-demokratik hukumat "ish bilan to'liq bandlik" siyosatini o'tkazgan Shvetsiyada ishsizlikning rasmiy tan olingan eng kam darajasi 1,5% bo'lgan.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) uslubiyati bo'yicha ish bilan band emaslik darajasi ishsizlar sonining mehnat resurslari soniga bo'lgan nisbat bilan tenglashadi. U ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifidagi tuzilmaviy nomutanosiblikni ko'rsatadi va bu bilan bo'sh ish joylari uchun ish izlayotgan shaxslarning bir vaqtda mavjudligini anglatadi.

Bugungi kunda ish bilan bandlik qator omillar ta'sirida shakllanadi:

1. Ishlab chiqarish sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar:

- xomashyo, materiallarni yetkazib berish va moliyalashning kamayishi munosabati bilan ishlab chiqarish (ish, xizmatlar) hajmining kamayishi;

- korxonalarda mehnatni tashkil etish va unga haq to'lashning takomillashtirilishi;

- korxonalarda boshqaruv tuzilmalarining takomillashtirilishi.

2. Iste'mol savatining qimmatlashuvi natijasida aholi turmush darajasi, uning daromadlari va iste'moli darajasidagi o'zgarishlarda namoyon bo'ladigan iqtisodiy omillar.

3. Omillarning ijtimoiy-demografik guruhi:

- mehnatga layoqatli aholi soni;

- tabiiy o'sish va o'lish miqdori;

- mamlakatda yoshlar miqdorining uzluksiz o'sib borishi (kollej va litsey bitiruvchilari, harbiy xizmatdan qaytganlar va hokazo);

- migratsiya jarayonlarini faollashtirish;

- kadrlar qo'nimsizligining keskinlashuvi.

Ish bilan bandlikning hozirgi holati ko'p jihatdan mehnat va ijtimoiy siyosat sohasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq.

Ish o'rinlarini tashkil etishning istiqbol ko'rsatkichlari⁵

Ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyoj mehnat bozorida ilk bor ishchi kuchini taklif qiladigan shaxslar (akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari va boshqa ta'lim muassasalari bitiruvchilari bo'lmish mehnatga layoqatli yoshdagilar), shuningdek ishga joylashishga muhtoj band bo'lmagan aholi (ish joyi va daromad manbaiga ega bo'lmaganlar, chet ellardan ishlab qaytgan mehnat migrantlari, muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilganlar, jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan, va shu kabilar) hisobiga shakllantiriladi.

Shuni inobatga olgan holda, 2013 yilda ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyoj parametrlari mehnat bozorining amaldagi tamoyillarini o'rganish, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif balansiga ta'sir qiluvchi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillari tahlili asosida aniqlangan. Bunda iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgartirishlar, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnologik yangilash natijasida bo'shab qoladigan xodimlar hisob-kitobiga alohida e'tibor qaratilgan.

2013 yilda mehnat bozoriga demografik omilning sezilarli va bevosita ta'siri saqlanib qoladi. Demografik prognozlarga ko'ra, 2013 yil boshida mehnat resurslari soni 17,4 mln. kishini, shundan iqtisodiy faol qismi 12,9 mln. kishini va ularning o'sishi mos ravishda 2,2 foiz va 2,5 foizni tashkil etadi (1.3.1-jadval).

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" NMIU. - 2013.

**O`zbekiston Respublikasida mehnat resurslarining istiqbol
ko`rsatkichlari, ming kishi**

T/r	Ko`rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017	2017 yilda 2013 yilga nisbatan o`zgarishi, %
1.	Mehnat resurslari soni	17365,5	17841,0	18329,5	18824,4	19332,7	111,3
2.	Iqtisodiy faol aholi soni	12929,9	13275,8	13658	14026,8	14433,5	111,6
3.	Ish bilan band aholi soni	12303,1	12644,2	13014,1	13378,5	13766,5	111,9
3.1.	Iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlar soni	7655,9	7838,7	8130,6	8757,5	8938,6	116,8
3.2.	Iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar soni	4296,2	4484,8	4559,8	4302,7	4498,4	104,7
3.3.	Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elga ketgan shaxslar soni	351,1	320,7	323,7	318,3	329,5	93,8
4.	Ishsizlar soni	626,8	631,6	643,9	649,1	661,4	105,5
4.1.	Mehnat organlarida ro`yhatdan o`tgan ishsizlar	7,2	9,5	10,9	12,6	13,1	181,9
4.2.	Mustaqil tarzda ish izlayotgan ishsizlar	619,6	622,1	633	636,5	648,3	104,6

Manba: Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari.

1.3.1-jadvaldan ko`rinadiki, 2013-2017 yillarda mehnat resurslari soni 11,3 foizga ko`payib, 19332,7 ming kishiga yetishi kutiladi. Prognoz qilinayotgan

davrda mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi soni 11,6 foizga ko`payib, aholining iqtisodiy faollik darajasi 74,4 foizdan 74,7 foizgacha oshadi. Istiqbolda band aholi sonining ham muntazam ko`payib borishi kutilib, o`rtacha yillik o`shish sur`ati 1,36 foiz atrofida bo`ladi.

Prognoz qilinayotgan davrda band aholi tarkibida iqtisodiyotning rasmiy va norasmiy sektorida bandlar sonining ko`payishi, aksincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elga ketgan shaxslar sonining kamayishi kuzatiladi. Mazkur holat respublikada har yili yuz minglab yangi ish o`rinlarining yaratilishi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, istiqbolda ishsizlar tarkibida mehnat organlarida ro`yhatdan o`tgan va mustaqil tarzda ish izlayotgan ishsizlar sonining ham o`shishi kutiladi hamda 2017 yilga borib respublikada aholining ishsizlik darajasi 4,6 foizni tashkil etishi kuzatiladi.

Respublikada ishsizlikning maqbul darajasini saqlab qolish maqsadida mehnat bozorida ish o`rinlariga bo`lgan ehtiyoj prognoz qilinayotgan davrda yiliga o`rtacha 1219,7 ming kishini tashkil etadi, ulardan 575,7 ming nafari ta`lim muassasalari bitiruvchilari, 626 ming nafari ish bilan ta`minlanishga muhtoj band bo`lmagan aholi (ishsizlar), shu jumladan, 48 ming nafar mehnat migrasiyasidan qaytganlar.

2013 yil “Ish o`rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta`minlash” Davlat dasturining prognoz parametrlari tarmoqlar bo`yicha (bandlik yo`nalishlari) va hududlar bo`yicha ishga joylashishga bo`lgan ehtiyoj, ayniqsa, ilk bor mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarni, iqtisodiyotdagi tarkibiy o`zgarishlar va ko`p mehnat talab etadigan ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash natijasida bo`shab qolayotgan xodimlarni, shuningdek sanoatni, qishloq xo`jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini, xizmat ko`rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, infratuzilmani rivojlantirish natijasida ishchi kuchiga bo`ladigan talab hisob-kitobidan kelib chiqib belgilangan.

Dasturda 2013 yilda 6 ta asosiy yo`nalish bo`yicha mamlakatimizda jami 972,7 mingta ish o`rni tashkil etilishi nazarda tutilgan (1.3.1-rasm).

2013 yilda ish o`rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashning asosiy yo`nalishlari

1-yo`nalish. Sanoat sohasidagi asosiy dasturlar-ning amalga oshirilishini davom ettirish, yirik yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish, faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarni rekonstruksiya qilish va kengaytirish.

4-yo`nalish. Ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini, transport va kommunikasiya qurilishini rivojlantirish, aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini kengaytirish.

2-yo`nalish. Kichik biznes korxonalari, xususiy va oilaviy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni yanada qo`llab-quvvatlash, xizmat ko`rsatish va servis sohasini, ayniqsa, qishloq joylarida, rivojlantirish, uy mehnati shakllarining, shu jumladan, yirik korxonalar bilan birgalikdagi shakllarining imkoniyatlarini kuchaytirish.

5-yo`nalish. Qishloq xo`jaligi sub'ektlarini rivojlantirish va kengaytirish, ayniqsa, tayyor qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashga, sabzavotpoliz mahsulotlarini saqlashga, issiqxona xo`jaliklarini tashkil etishga ixtisoslashgan sub'ektlarni qo`llab-quvvatlash bo`yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

3-yo`nalish. Uy mehnati barcha turlarining, avvalambor, mehnat shartnomalariga asoslangan korxonalar bilan bog`liq holda hamda oilaviy tadbirkorlikning rivojlantirish.

6-yo`nalish. Vaqtinchalik faoliyat ko`rsatmayotgan korxonalar, shu jumladan tijorat banklari balansiga o`tkazilgan bankrot korxonalar faoliyatini tiklash.

Birinchi yo`nalish hisobiga 57,9 mingta, shu jumladan, xo`jalik boshqaruvi organlari tuzilmasiga kiruvchi korxonalarda – 16,9 mingta, hududiy bo`ysunuvdagi korxonalarda – 41,0 mingta ish o`rni yaratilishini ta'minlaydi.

Eksport qiluvchi korxonalarining rag`batlantirilishini kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarning eksport qilinishini kengaytirish, to`g`ridan-to`g`ri chet el investisiyalarini jalb qilishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar ushbu yo`nalishda ish o`rinlari yaratishning muhim omillari bo`lib xizmat qiladi. Xususan, 2012 yilning 1 aprelidan boshlab valyuta kreditlari bo`yicha asosiy qarzlarni uzish uchun joriy to`lovlarga yo`naltiriladigan, valyuta kirimlarining bir

qismini majburiy tarzda vakolatli banklarga sotishdan ozod qilinishi, yangi ishlab chiqarishlarni qurish, faoliyat ko`rsatayotgan ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash va texnologik yangilash, Toshkent viloyatida «Angren» maxsus industrial hududining tashkil etilishi, 2012–2016 yillarda qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta ta'minlash Dasturining tasdiqlanishi va boshqa tadbirlar faoliyat ko`rsatayotgan ishlab chiqarishlarda ish o`rinlarini yanada ko`paytirish barobarida tarmoqlararo aloqador (transport, qurilish yoki ijtimoiy infratuzilma sohalari) tizimlarga bog`liq ish o`rinlarini yaratishga ham xizmat qiladi.

Mazkur yo`nalishdagi ish o`rinlarining salmoqli qismi Farg`ona (8,6 ming), Toshkent (7,8 ming), Qashqadaryo (5,9 ming), Namangan (5,1 ming) viloyatlari va Toshkent shahrida (7,5 ming) yaratiladi.

Ikkinchi yo`nalish bo`yicha ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko`zda tutilgan. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yilda qabul qilingan, ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish, statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, lisenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to`g`risidagi farmonlari, shunga asosan joriy yilning 1 avgustidan boshlab 80 ta ruxsat berish tartib-taomillari, lisenziyalanadigan 15 ta faoliyat turi lisenziyalash hamda 68 ta statistik va soliqqa oid hisobotlar shakllarining bekor qilinganligi, kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish va kengaytirish hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek kichik biznesni rivojlantirish hududiy dasturlarining amalga oshirilishi 485,6 mingta ish o`rinlari tashkil qilish imkoniyatini yaratadi.

2013 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarini kreditlash orqali qo`llab-quvvatlashni yuqori darajada saqlab qolish rejalashtirilmoqda. CHunonchi, tijorat banklari tomonidan shu maqsadlar uchun 5,1 trln. so`m ajratilishi nazarda tutilmoqda. Bunda imtiyozli kredit resurslari asosan uzoq qishloq tumanlarida va mehnat bozoridagi vaziyat og`ir bo`lgan hududlarda ish o`rinlari yaratishni nazarda tutuvchi loyihalarni moliyalashtirishga yo`naltiriladi.

Ish o`rinlari yaratishning ushbu yo`nalishdagi asosiy tarmog`i xizmat ko`rsatish va servis sohasi bo`lib, xususan, mamlakat YAIMda xizmat ko`rsatish ulushining maqsadli parametrlariga (52,5 foiz) erishish doirasida kichik biznes korxonalarida 267,1 mingta ish o`rni yaratilishi kutilmoqda. Ushbu ko`rsatkich xizmat ko`rsatish sohasini jadal rivojlantirish, ko`rsatilayotgan xizmatning, avvalo qishloq joylarida, turlarini kengaytirish va sifatini oshirish hamda shuning asosida mamlakat iqtisodiyotining barqaror va uyg`un rivojlanishida xizmat ko`rsatish sohasining roli va ahamiyatini oshirishga doir maqsadlarga erishilishiga bevosita bog`liq. Ushbu soha kelgusi yilda 18 foizdan ortiqroqqa oshishi kutilayotgan kompyuter dasturlarini yaratish (elektron ta`lim va konsultativ xizmatlarni inobatga olgan holda), savdo va umumiy ovqatlanish, sog`liqni saqlash bo`yicha xizmatlar sohasi ayniqsa ustuvor hisoblanadi. Yakka tadbirkorlikning rivojlanishi 117,7 ming kishining bandligini ta`minlaydi.

Mamlakatimizda **uchinchi yo`nalish**ning rivojlanishi 218,4 ming nafar band bo`lmagan fuqaroni, asosan ko`p bolali ayollar, nogironlar va aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj boshqa toifalarini ish bilan ta`minlashga ko`maklashadi. SHu o`rinda 2012 yilda qabul qilingan, iqtisodiyotning turli jabhalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muhim shakli bo`lgan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur qonunchilik bazasini yaratish, oilaviy biznes uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, ish o`rinlari tashkil qilish imkoniyatini yaratgan “Oilaviy tadbirkorlik to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni muhim ahamiyat kasb etadi. Qonun hujjatlarida kichik biznes sub`ektlari uchun nazarda tutilgan imtiyozlar, preferensiyalar va kafolatlar oilaviy korxonaga ham taalluqli ekanligi alohida e`tiborga molik.

Oilaviy tadbirkorlikda faoliyatni tashkil qilishning boshqa shaklida bo`lmagan ish kuni va mehnat taqsimoti imkoniyati mavjud, bu esa ishlab chiqarishga, boshqa holatlarda “band bo`lmaganlar” qatorida bo`lgan, yosh bolali ayollarni, o`quvchilar va aholining mehnat bozorida raqobatbardosh bo`la olmaydigan boshqa toifalarini qisman bo`lsa-da, oddiy sharoitlarda jalb qilish imkonini beradi. Ushbu tashkiliy

shakl mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan yoshlarga mehnat faoliyati va tadbirkorlikka kirishishi uchun qulay va ijtimoiy maqbul sharoitni yaratadi.

Uy mehnatiga asoslangan ish o`rinlarining salmoqli qismi milliy hunarmandchilikning azaliy markazlari bo`lgan hududlarda - Namangan (28,9 ming), Farg`ona (27,2 ming), Andijon (20,0 ming), Samarqand (15,4 ming), Buxoro (18,0 ming) viloyatlarida, shuningdek SHahrixon, G`ijduvon, CHust, SHahrisabz, Urgut, Boysun, Rishton, Xiva va boshqa tumanlarda tashkil etiladi.

Ish o`rinlari tashkil etishning **to`rtinchi yo`nalishida** yagona milliy avtomobil transporti tizimini tashkil etish, avtomobil yo`llarini, shu jumladan O`zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiruvchi avtomobil yo`llarini qurish va rekonstruksiya qilish, temir yo`l uchastkalarini elektrlashtirish, bosh loyihalar asosida qishloq aholi punktlarini kompleks qurishni amalga oshirish, qishloq joylarida tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo`yicha zamonaviy uy-joylarni, muhandislik inshootlarini, ijtimoiy infratuzilma ob`ektlari qurishni kengaytirish, qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta`minlashni yaxshilash, qishloq xo`jaligi ilmiy muassasalarini zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta`minlashga doir investision loyihalar va shu kabilar muhimligi saqlanib qoladi. Respublikada ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini, transport va kommunikasiya qurilishini rivojlantirish, aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarining kengaytirilishi 73,1 mingta ish o`rni tashkil etish imkonini beradi.

Qishloq xo`jaligi sub`ektlarini rivojlantirish va kengaytirish, ayniqsa, tayyor qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashga, sabzavot-poliz mahsulotlarini saqlashga, issiqxona xo`jaliklarini tashkil etishga ixtisoslashgan sub`ektlarni qo`llab-quvvatlash bo`yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishning davom ettirilishi 124,1 mingdan ortiq kishining bandligini ta`minlaydi.

**2013 yilda ish o`rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash
DASTURI**

T/r	Jami	Shu jumladan hududlar bo'yicha														
		Qoraqalpog'iston Respublikasi	Andijon	Buxoro	Jizzax	Qashqadaryo	Navoiy	Namangan	Samarqand	Surxondaryo	Sirdaryo	Toshkent	Farg'ona	Xorazm	Toshkent sh.	
	Ish o`rinlarini tashkil etish jami	972676	49725	79580	73737	43915	88777	41032	75111	93894	65943	40051	86773	92441	60038	81659
	Shu jumladan quyidagilar hisobiga:															
1.	Yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish, mavjud korxonalarni kengaytirish va quvvatlarni yangilash	57878	755	2580	2550	2381	5940	4118	5059	3540	2820	1710	7803	8552	2610	7460
2.	Kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish va rivojlantirish	367849	21240	33950	27350	12217	27650	12454	24264	35160	28687	17100	35682	28560	13111	50424
	shu jumladan:															
2.1.	sanoatda	56447	1000	3790	4100	1635	2630	1749	5511	7570	4357	2171	5562	7807	1245	7320
2.2.	uy-joy qurish va ta'mirlashda	44310	310	6350	3000	1724	2800	2557	2895	6000	7294	1352	3520	2821	1927	1760
3.	Yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish	117728	2370	11750	8630	5565	14700	5542	8384	11400	8628	8670	8481	8612	6376	8620
4.	Kasanachilikning barcha shakllarini tashkil etish	218357	9350	20000	18022	10489	23950	6060	28892	15400	10898	1901	17231	27155	20369	8640
5.	Fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish (parrandachilik, asalarichilik va baliqchilik)	124071	10950	4450	12970	7685	10307	8790	2318	17909	10274	4020	9444	10561	14393	-
6.	Ishlab chiqarish ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish	73088	4610	6050	3365	4995	5580	3361	4988	9385	4100	4250	6781	7978	2545	5100
7.	Ishlamayotgan korxonalar faoliyatini tiklash	13705	450	800	850	583	650	707	1206	1100	536	2400	1351	1023	634	1415

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari.

Mamlakat korxonalarida qishloq xo`jaligi xom ashyosini chuqur qayta ishlash bo`yicha belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi va shu asosda ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh bo`lgan zamonaviy va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko`paytirish va turlarini kengaytirish qishloq xo`jaligida qo`shimcha muqim ish o`rinlari tashkil qilish uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga xizmat qiladi;

Vaqtinchalik faoliyat ko`rsatmayotgan korxonalar, shu jumladan tijorat banklari balansiga o`tkazilgan bankrot korxonalar faoliyatini tiklash 13,7 mingta ish o`rni tashkil etilishini ta`minlaydi.

2013 yilda ish o`rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta`minlash dasturining asosiy parametrlari 1.3.2-jadvalda o`z aksini topgan.

1.3.2-jadvaldan ko`rinadiki, 2013 yilda tashkil etiladigan ish o`rinlarining asosiy qismi (85,1%) kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish va rivojlantirish (37,8%), kasanachilikning barcha shakllarini tashkil etish (22,4%), fermer va dehqon xo`jaliklarini rivojlantirish (12,8%) hamda yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish (12,1%) hisobidan tashkil etiladi.

Hududlar bo`yicha yaratiladigan ish o`rinlarining salmoqli qismi Samarqand (93,9 ming), Farg`ona (92,4 ming), Qashqadaryo (88,8 ming), Toshkent (86,8 ming), Andijon (79,6 ming), Namangan (75,1 ming) viloyatlarida va Toshkent shahrida (81,7 ming) yaratiladi.

Ishsizlik darajasi birmuncha yuqori bo`lgan, tog`li, chegara oldi hududlarida joylashgan, ishlab chiqarish va ijtimoiy soha yetarli darajada rivojlanmagan 28 ta tumanga alohida e`tibor qaratiladi, ushbu hududlarda 2013 yilda kamida 126 mingta yoki 2012 yil dasturidagidan 5 foiz ko`p ish o`rni tashkil etilishi nazarda tutilmoqda. SHu bilan birga, ishlovchilar soni ko`p bo`lgan ixcham kichik korxonalarni rivojlantirishga yetarli e`tibor berilmaydigan 83 ta tumanda, ko`p mehnat talab etadigan yengil, oziq-ovqat, yog`ochga ishlov berish, elektrotexnika tarmoqlari va qurilish materiallari sanoatining birorta ham yirik sanoat korxonasi bo`lmagan 28 tumanda tashkil etish va joylashtirish yuzasidan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish nazarda tutilgan.

Dastur doirasida vazirliklar, idoralar va xo`jalik boshqaruvi organlari tomonidan aniq korxonalar bo`yicha 2013 yilda ish o`rinlari tashkil etishning tarmoq dasturlarini, shuningdek ishlab chiqarishni modernizasiyalash va texnologik yangilashni, ishchi kuchining mavsumiy talab va takliflarini inobatga olgan holda ilgari tashkil etilgan ish o`rinlarini so`zsiz saqlab qolish va ularning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash bo`yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish nazarda tutilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat aholini ish bilan ta'minlash, ishsizlikni bartaraf etish va mehnat bozorini tartibga solish bo`yicha izchil ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib boradi. Chunki mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo`shilishning muhim manbasi bo`lib hisoblanadi.

Mehnat bozoriga ta'sir qiluvchi omillarning turli-tumanligi va uning samarali amal qilishi ijtimoiy jihatdan ahamiyatga ega ekanligi tufayli unda davlatning optimal boshqaruvi va tartibga solishi talab etiladi. Ish bilan bandlik sohasida tartibga solishning bunday tizimini yaratish O`zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biridir.

Ish bilan bandlik siyosati O`zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning boshqa ustuvor yo`nalishlari bilan uzviy bog`liq, iqtisodiy islohotlar strategiyasi va istiqbol rejalaridan munosib o`rin egallagan⁶.

O`zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mehnat qilish va ishni erkin tanlash huquqini amalga oshirishda barcha fuqarolarga jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, mansab mavqei, dinga munosabati, e'tiqodi va jamoat birlashmalariga mansubligidan, shuningdek xodimlarning ishchanlik jihatlari hamda ular

⁶ Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013. - B.184.

mehnatining natijalariga bog`liq bo`lmagan boshqa holatlardan qat`iy nazar teng imkoniyatlarni ta`minlash;

- kishilarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo`llab-quvvatlash va rag`batlantirish, ularda mehnat qilish va hayot kechirishda munosib sharoitlarni ta`minlaydigan umumli va ijodiy mehnat qobiliyatini rivojlantirishga ko`maklashish;

- mehnat qilishning ixtiyoriyligi;

- ish bilan ta`minlanish sohasida ijtimoiy kafolatlar berish va aholini ishsizlikdan himoya qilishni ta`minlash;

- ijtimoiy himoyaga o`ta muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolar uchun mavjud ish joylarini saqlab qolayotgan va yangi ish joylarini yaratayotgan ish beruvchilarni rag`batlantirish;

- ish bilan ta`minlash sohasidagi tadbirlarni iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning boshqa yo`nalishlari bilan muvofiqlashtirish;

- aholini ish bilan ta`minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishda davlat organlari, kasaba uyushmalari, xodimlarning vakillik organlari va ish beruvchilarning o`zaro hamkorligi;

- aholini ish bilan ta`minlash muammolarini hal qilishda davlatlararo hamkorlik.⁷

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning tarkibiy qismi hisoblangan ish bilan bandlik siyosati quyidagi asosiy maqsadlarga erishishni nazarda tutadi:

- tarkibiy qayta qurishni rag`batlantirish asosida bo`shab qolgan xodimlarni qayta taqsimlash jarayonini jadallashtirish;

- ishsizlarni mehnat hayotiga juda tezlik bilan jalb qilish;

- ish qidirayotganlardan har birini ish bilan ta`minlash.


Davlat mehnat bozorida raqobatbardosh bo`lmagan va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish bo`yicha chora-tadbirlarni ko`zda tutadi. Ya`ni, aholini ish bilan ta`minlashga ko`maklashish maqsadida tashkilotlarga ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynaladigan shaxslarni ishga

⁷ O`zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta`minlash to`g`risida"gi Qonuni 5-moddasi // www.lex.uz

joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilanadi. Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 20 avgustdagi 186-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o`rinlarini band qilib qo`yish tartibi to`g`risida”gi Nizomga muvofiq, fuqarolarning ushbu toifasiga ta`lim muassasalarini tugatgan yoshlar, muddatli harbiy xizmatdan bo`shatilgan shaxslar, nogironlar va jazoni o`tash muassasalaridan bo`shatilgan shaxslar kiradi.

Respublikada aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj toifalarining bandligini ta`minlash yo`nalishlari 1.3.2-rasmda keltirilgan.


1.3.2-rasm.



Ushbu chora-tadbirlar natijasida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi nafaqat o`zlariga munosib ish bilan ta`minlanadilar, balki ular ijtimoiy hayotning faol kishisiga aylanib, o`zlarini ushbu jamiyatning to`la qonli a`zosi ekanliklarini his qiladilar. Shuningdek, ular normal turmush tarzini yuritish va zaruriy xayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun mehnat daromadlariga ega bo`ladilar.

Yurtimiz aholisi farovonligi istiqbolini ko`zlab ishlab chiqilgan maqsadli dasturlarda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko`zda tutilgan (1.3.3-rasm)

1.3.3-rasm



Mazkur dasturiy vazifalarning bajarilishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotda o`z tasdig`ini topishi kelajakda aholi ish bilan bandligining o`shishiga olib kelishi muqarrar.

“Obod turmush yili” Davlat dasturiga muvofiq, o`rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta`lim muassasalarini bitirgan yoshlarni ishga joylashtirish uchun qo`shimcha sharoitlar va imkoniyatlar yaratishga, shu jumladan ularni sinov muddatisiz ishga qabul qilish to`g`risidagi normalarni joriy etishga, xalqaro amaliyotga muvofiq ishga joylashtirish yuzasidan xizmatlar borasida nodavlat korxonalari faoliyatini rivojlantirishga yo`naltirilgan «O`zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinadi.

Shuningdek, Davlat dasturida ishga joylashishga muhtoj shaxslarni kasbga o`qitish va tayyorlash tizimini quyidagi yo`llar bilan yanada rivojlantirish ko`zda tutilgan:

- ish bilan band bo`lmagan shaxslarni ularning kelgusida ishga joylashtirish imkoniyatlarini kengaytirish uchun mehnat bozorida talab katta bo`lgan mutaxassisliklar bo`yicha kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash.

- Toshkent shahridagi Kasb ta`limi markazida 600 nafar ishsizlarni mehnat bozorida talab etilayotgan mashinasozlik, elektronika, avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatish, axborot texnologiyalari tarmoqlari va sohalari kasblari bo`yicha tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

- Samarqand shahrida KOICA granti hisobiga 240 o`rinli Kasb ta`limi markazi tashkil etish⁸.

Shunday qilib, yaqin istiqbolda mamlakatimiz mehnat salohiyati oshib borar ekan, ushbu tendensiya mazkur salohiyatdan samarali foydalanish va ularni iqtisodiyotning turli jabhalariga safarbar etish choralarini ko`rish talab etadi. Bunda davlat o`rta va uzoq muddatga mo`ljallangan maqsadli dasturlar ishlab chiqishi lozim bo`ladi. Chunki maqsadli kompleks dastur mehnat bozorining kelajakdagi faoliyatida asosiy tadbirlarni ishlab chiqishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun mehnat bozori faoliyatining maqsadli kompleks dasturini amalga oshirishga alohida ahamiyat berish kerak. U qishloq xo`jaligi tarmoqlarida ishchi kuchiga talab va taklifni kamaytirish; sanoat, xizmat ko`rsatish va boshqa tarmoqlarda jonli mehnat va ish joylariga o`sib borayotgan talablarni qanoatlantirish; ishchi kuchiga talab va taklif o`rtasidagi bozor muvozanatiga erishish; ishsizlikni kamaytirish; yuqori malakali xodimlarni shakllantirish; mehnat bozori infratuzilmasi ob`ektlarini samarali rivojlantirish; ish bilan band bo`lmagan shaxslarning ishonchli ijtimoiy himoyalanihini ta`minlashni nazarda tutadi. Bu kabi samarali natijalarga erishish uchun avvalo dasturni amalga oshirishning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini, moliyalashtirish manbalarini

⁸ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 fevraldagi "Obod turmush yili" Davlat dasturi to`g`risida"gi 1920-sonli qaroriga ilova

hamda ijrochi va mas'ullarning vazifalarini aniq belgilab olish zarur. Istiqbol dasturlarni ishlab chiqishda maqsadga yo'naltirilganlik, komplekslik, bog'langanlik, qamrovlilik, aniqlik, ko'p variantlik, haqiqiylik, rasionallik, ustuvorlik, cheklanganlik, muddatlilik, boshqaruvchanlik va egasiga mo'ljallanganlik kabi xususiyatlarni hisobga olish lozim.

2-Bob.O`zbekistonda aholi bandligini ta`minlashning ustuvor yo`nalishlari.

2.1.Aholi bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli.

Mamlakatimizda mehnatga layoqatli aholi bandligini ta'minlash maqsadida har yili yangi ish o`rinlari yaratilmoqda. Jumladan, 2014 yilda ham 1 millionga yaqin yangi ish o`rni tashkil etish nazarda tutilmoqda. Bu ish o`rinlari yangi yirik sanoat ob'ektlarini ishga tushirish, ishlab turgan korxonalarni rekonstruksiya qilish va kengaytirish, kichik biznes, xususiy va oilaviy tadbirkorlikni, xizmat ko`rsatish va servis sohaslarini rivojlantirishni bundan buyon ham rag`batlantirish, kasanachilik imkoniyatlarini, shu jumladan, yirik korxonalar bilan kooperasiyalashgan kasanachilik imkoniyatlarini kuchaytirish hisobiga tashkil etiladi.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy soha yetarli darajada rivojlanmagan, ishsizlik darajasi nisbatan yuqori bo`lgan tog`li, chegara hududlarda joylashgan 28 ta tumanga alohida e'tibor beriladi. 2013 yilda bu hududlarda kamida 126 mingta yangi ish o`rni yoki 2012 yildagidan besh foiz ko`p ish o`rni tashkil etish nazarda tutilmoqda.

2013 yilda ish o`rinlariga bo`ladigan ehtiyoj parametrlari mehnat bozoridagi ishchi kuchiga bo`lgan talab va taklif balansiga, shu jumladan, demografik vaziyatga, migrasiya jarayonlariga ta'sir ko`rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillari va tamoyillarini, iqtisodayotdagi tarkibiy o`zgartirishlar, sanoat, infratuzilma, investisiya, monetar va fiskal siyosat chora-tadbirlari ta'sirini tahlil qilish asosida belgilangan.

Istiqbolda ish bilan band bo`lgan aholi sonining ham ko`payishi kuzatilib, 2015 yilga kelib 13014,1 ming kishiga yetadi. Shu bilan birga, prognoz qilinayotgan davrda ishsizlar soni 626,8 ming kishidan 643,9 ming kishiga foizga ortadi. Biroq ishsizlik darajasining 2014 yilda 4,8 foizdan 2015 yilda 4,7 foizgacha kamayishi kuzatiladi.(2.1.1-jadval)

**Mehnat resurslarini o'zgarishida bandlar sonining istiqbol
ko'rsatkichlari, ming kishi**

№	Ko'rsatkichlar	2013 y	2014 y	2015 y
1	Mehnat resurslari	17365.5	17841.0	18329.5
2	Iqtisodiy faol aholi	12929.9	13275.8	13658.0
3	Ish bilan band aholi	12303.1	12644.2	13014.1
4	Ishsizlar soni	626.8	631.6	643.9
5	Ishsizlik darajasi, %	95.2	95.2	<u>95.3</u>

Manba. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turganidek, 2013-2015 yillarda mehnat resurslari soni 17365,5 ming kishidan 18329,5 ming kishiga ko'payadi. Bu davrda iqtisodiy faol aholi soni 6,1 foizga ko'payadi va prognoz qilinayotgan davrda mehnat resurslari tarkibidagi ulushi 74,3 foizdan 74,5 foizga ortadi, Demografik rivojlanishning prognoz ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat mehnat bozorida yangi ish o'rinlarini yaratishga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi.2.1.2-jadval

O'zbekistonda mehnat resurslarini istiqbol ko'rsatkichi (ming kishi)

№	Ko'rsatkichlar	2013 y	2014 y	2015 y
1	Mehnat resurslari soni	17365.5	17841.0	18329.5
2	Iqtisodiy faol aholi	12929.9	13275.8	13658.0
3	Ish bilan band aholi	12303.1	12644.2	13014.1
4	Ishsizlar soni	626.8	631.6	643.9
5	Ishsizlik darajasi, %	4.8	4.8	4.7

Manba. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari

Jadvaldan ko`rish mumkinki, 2013-2015 yillarda mehnat resurslari soni 17365,5 ming kishidan 18329,5 ming kishiga ko`payadi. Bu davrda iqtisodiy faol aholi soni 6,1 foizga ko`payadi va prognoz qilinayotgan davrda mehnat resurslari tarkibidagi ulushi 74,3 foizdan 74,5 foizga ortadi. Istiqbolda ish bilan band bo`lgan aholi sonining ham ko`payishi kuzatilib, 2015 yilga kelib 13014,1 ming kishiga yetadi. Shu bilan birga, prognoz qilinayotgan davrda ishsizlar soni 626,8 ming kishidan 643,9 ming kishiga ortadi. Biroq ishsizlik darajasining 2013 yilda 4,8 foizdan 2015 yilda 4,7 foizgacha kamayishi kuzatiladi.

Demografik rivojlanishning prognoz ma'lumotlariga ko`ra, mamlakat mehnat bozorida yangi ish o`rinlarini yaratishga bo`lgan ehtiyoj ortib boradi.(2.1.3-jadval)

2.1.3-jadval

O'zbekistonda yangi ish o`rinlarni yaratishga bo`lgan ehtiyoj prognozi
(ming kishi)

№	Ko'rsatkichlar	2013	2014	2015
I	Yangi ish o`rinlariga ehtiyoj, jami	1215.6	1222.6	1275.4
1.1.	Mehnat bozoriga ilk kiruvchi shaxslar soni	575.80	573.3	613.7
	Shulardan bitiruvchilar:			
	-akademik litseylar	17.8	13.4	13.1
	-kasb-hunar kollejlari	493.3	501.1	540.6
	-oliy o`quv yurtlari	58.3	58.8	60.0
1.2.	Ishga joylashishga muhtoj, ish bilan band bo`lmagan aholi soni	622.0	631.6	643.9
	Shundan qaytib kelgani mehnat migrantlari soni	37.3	36.5	35.8
1.3.	Boshqalar (muddatli harbiy xizmatdan qaytganlar, jazoni o`tashdan ozod	17.8	17.7	17.8

	etilganlar)			
II.	Ish o'rinlariga ehtiyoj, jami	1215.6	1222.6	1275.4
2.1.	Xodimlarning tabiiy ishdan ketishi (pensiyaga chiqish, o'lim va h.k) ish o'rinlarining paydo bo'lishi	150.0	161.0	173.0
2.2.	Mehnat muassasalariga ishberuvchilar tomonidan berilgan bo'sh ish o'rinlari soni	73.0	75.0	78.0
2.3	Yangi tashkil qilinadigan ish o'rinlari soni	992.6	986.6	1024.4

Manba. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza vazirligi malumotlari

2.1.3-jadvaldan ko`rish mumkinki, 2013 yilda mamlakat mehnat bozorida ish bilan band bo`lish ehtiyoji prognoz bo`yicha 1 million 215 ming 600 ta ish o`rnini tashkil etadi, shundan 575,8 mingtasi ta`lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish uchun, 622,0 mingtasi prognoz davrining boshida band bo`lmagan va ishga joylashishga muhtoj bo`lgan ishsiz aholi uchun. Bunda 150 ming xodim tabiiy ravishda chiqib ketishi (pensiyaga chiqishi va hokazo) munosabati bilan bo`shatilishi, shuningdek prognoz davrining boshida taqdim etilgan 73 mingta bo`sh ish o`rnidan foydalanilishi kutilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini yanada rivojlantirish O`zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan, hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi, aholi farovonligini oshirish omili sifatida qaralmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan katta e'tibor berilishi hamda qo'llab-quvvatlanishi natijasida uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan yilga ortib bormoqda.

Xususan, 2000 yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2008 yilda bu ko'rsatkich 48,2 foizni, 2009 yilda 50,1 foizni, 2010 yilda 52,5 foizni, 2011 yilda esa 54 foizni tashkil etdi yoki 2000 yilga nisbatan 23 foizga o'sdi.

Mamlakatimizda ish bilan band aholining 74 foizidan ortig'i aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida bandligi bu sohaga e'tiborni yanada kuchaytirishni, jumladan tijorat banklari tomonidan yaratilgan yangi ish o'rinlari sonining o'sish sur'ati bo'yicha respublikamizning Shimoliy-g'arbiy va Janubiy-sharqiy mintaqalari eng past ko'rsatkichni, ya'ni o'rtacha yillik o'sish mos ravishda 5% va 7,6% ni tashkil etgan Respublika mintaqalarining Xorazm, Surxondaryo, Jizzax, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha olib borilgan ishlar ancha qoniqarsiz holatda. Demak, yuqoridagi hududlarda mavjud muammolari hal etish bo'yicha zarur choratadbirlarni ishlab chiqish lozim. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida aholining tarmoqlar bo'yicha bandligida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar oxirgi yillarda iqtisodiyotning sanoat, transport va aloqa, savdo va umumiy ovqatlanish kabi tarmoqlarida aholini ish bilan bandligining jadal oshib borishida namoyon bo'ldi.

Aytish mumkinki, mamlakatimizda so'ngi yillarda zamonaviy industriyaning bir qancha sohalari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma sezilarli darajada rivojlanib borayotgan bo'lishiga qaramasdan aholi bandligining tarmoq tuzilmasi unchalik rivojlanmayapti. Jumladan, aholining iqtisodiyotning agrar sektorida bandligi hamon yuqoriligicha qolmoqda. Sanoat, transport va aloqa, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida esa band bo'lganlarning salmog'i past holatdadir.

O`zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o`tishi jarayonida davlat va nodavlat sektor o`rtasida aholi bandligini qayta taqsimlashda ham jiddiy siljishlar yuz bermoqda. Jumladan, iqtisodiyotning nodavlat sektorida bandlik yuqori sur`atda o`smoqda. 2005 yildan 2009 yilgacha olib qaralganda, nodavlat sektorida band bo`lganlariing ulushi 76,8% dan 77,9%ga ko`tarildi.

Xulosa qilib aytganda keyingi yillarda respublikada kichik tadbirkorlikning jadal fermer xo`jaliklari band bo`lganlar soni keskin oshdi. Birgina 2008-2009 yillarda kichik tadbirkorlikning ushbu yo`nalishlarida bandlik mos ravishda 3,1% va 5,7% ga oshdi. Demak, bundan ko`rinadiki, respublikamizda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida etibor qaratish lozim. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va shu asosda bandlik darajasini oshishi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo`lib, mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida asosiy ustuvor vazifalardandir. Bugungi mamlakatimiz xalq xo`jaligining barcha tarmoqlarida ishlab chiqarishni keng ko`lamda va jadal rivojlantirish, iqtisodiy salohiyatni yuksaltirish va yanada mustahkamlash, eng asosiysi aholini ish bilan bandligini oshirish va xalq turmush farovonligini yanada yaxshilashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholining talay qismi uchun mehnatini qo`llaydigan soha va daromad manbai bo`lish bilan bir qatorda, u yetarli malaka va tajribaga ega bo`lmagan, egiluvchan jadvali ish kunini istagan aksariyat mehnat resurslarini eng moslashuvchan qismi hamdir. Xizmat ko`rsatish va servis sohasini rivojlantirish aholining daromadlarini ko`paytirish, turmush darajasini oshirishning o`ta muhim sharti bo`lgan aholining bandlik masalasini hal bo`lishini ta`minlovchi asosiy omillardan biridir. Ushbu sohaning jadal rivojlanishi birinchidan, aholini ish bilan ta`minlash orqali oilalarning aniq daromadlarini ko`payishiga, ikkinchidan esa, mamlakatimiz bozorini xizmatlarga bo`lgan ehtiyojini qondirish orqali aholining turmush darajasining oshishiga olib keladi.

2.2.Aholining ish bilan bandligini taminlash yo`llari.

Bozor islohotlari sharoitida aholini ish bilan bandligini oshirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi va bu vazifani ado etish talab etiladi. Buning uchun esa ish bilan bandlikni ta'minlash va uni oshirishning asosiy yo`llarini aniq belgilab olish va amalga oshirish kerak bo`ladi.

Mehnat resurslari va mehnat bozoridagi munosabatlarni boshqarishning amaldagi usullarini jadal sur'atda almashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunda ish bilan bandlikni tartibga solishning tashkiliy tarkiblari, usullari va vositalari o`xshash bozorlarini shakllantirish zarurati tug`ilmoqda.

Bu borada mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov "...tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko`rsatmaydi, bizni chetlab o`tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o`ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo`lmas xato bulo`r edi. Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim - O`zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi"⁹ degan so`zlarini yana bir bor esga olish muhimdir.

Aholining ish bilan oqilona bandligini ta'minlash va uni oshirish yo`llari sifatida quyidagilarni ko`rsatib o`tishimiz mumkin:

- respublikamizda ko`p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish;
- ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini rivojlantirish;
- mamlakatga chet el investisiyalarini jalb qilish;
- aholi bandligini oshirish bo`yicha ijtimoiy-iqtisodiy monitoringlar o`tkazish;
- mehnat organlari faoliyatini yanada rivojlantirish;
- mamlakatda ishchi kuchi migrasiyasini rivojlantirish;
- qishloq joylarda ishlab chiqarishni, sanoatni turli ko`rinishlarda olib kirish va boshqalar.

⁹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. - T.: O`zbekiston, 2009, 11-6

Ushbu yuqorida keltirib o`tilganlar ish bilan bandlikni ta`minlashning asosiy yo`llari bo`lib, ularni alohida ko`rib chiqamiz.

Ko`p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish bugungi kunda aholi ish bilan bandligini oshirishda eng muhim yo`nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki mulkchilikning turli shakllarini mavjud bo`lishi aholi bandligiga ijobiy ta`sir ko`rsatib, mehnatga qobiliyatli aholining kasb-malakasi va qobiliyatlari bo`yicha band bo`lishini ta`minlaydi. Demak, bunda quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- davlat sektorini transformasiya qilish bo`yicha islohotlar olib borish;
- davlat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish ishlarini davom ettirish;
- xo`jalik yuritishniig yangi shakllarini rivojlantirish (kooperativlar, hissadorlik jamiyatlari va h.k.);
- iqtisodiy zararli korxonalarni likvidasiya qilish va boshqalar.

2013 yilda ish o`rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta`minlash dasturining asosiy vazifalari¹⁰

- aholining iqtisodiy faolligini oshirib borish;
- mehnat resurslaridan unumli foydalaishi,
- mehnat bozorida faol va maqsadli chora-tadbirlarni band bo`lmagan aholini, ayniqsa qishloq joylardagi, birinchi navbatda yoshlar, ayollar, nogironlar, muassasalarining bitiruvchilarini ishga joylashtirish,
- kasbiy qayta tayyorlash va ijtimoiy himoyalash yo`li bilan amalga oshirish;
- yangi ish o`rinlarini tashkil etish jarayonlarini mehnat bozorining ehtiyojlari asosida, demografik va boshqa omillarga muvofiq hamda 2013 yilga belgilangan asosiy yo`nalishlar va prognoz parametrlari doirasida respublika tarmoqlari va hududlarini rivojlantirish bo`yicha qabul qilingan barcha dasturiy hujjatlarni amalga oshirishni hisobga olgan holda ragbatlantirish;

¹⁰ 2013 yilda ish o`rni tashkil qilish va aholi bandligini ta`minlash Davlat dasturi

- mehnat bozorini tartibga solish, mehnat bozoridagi bosimni pasaytirish va vaziyatni yumshatishning ta'sirchan vositasi sifatida bandlikning samarali shakllarini, ayniqsa kichik biznes, kasanachilik va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish;
- yangi ish o`rinlarini tashkil etish va ilgari yaratilganlarining barqaror ishlashini ta'minlash bo'yicha hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarining salohiyatidan yanada keng foydalanish samardorligini yanada oshirish; ishsizlik darajasining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan me'yorlardan oshib ketishini oldini olish;
- turli mulkchilik shakllari va tarmoqlar bo'yicha ish joylari yaratish sur'atlari va hajmlarini ta'minlash;
- ish bilan bandlar va ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish.

Yangi ish o`rinlari tashkil etish va aholi bandligini taminlash dasturining asosiy yo`nalishlari:¹¹

- Yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish;
- Mavjud quvvatlaridan unumli foydalanish, korxonalarni kengaytirish;
- Kichik biznes korxonalarini tashkil etish;
- Yakka tadbirkorlikni rivojlantirish;
- Kasanachilik va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish;
- Ishlab chiqarish, bozor va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;
- Fermer va aholi xo`jaliklari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish;
- Ishlamasdan turgan korxonalar faoliyatini tiklash va moliyaviy sog'lomlashtirish.

Aholining ish bilan bandligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning eng asosiylaridan biri, shubhasiz, ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini rivojlantirish va yangilarini barpo etish hisobiga yangi ish o`rinlarini yaratish. Bandlikni oshirishning ushbu faol siyosati bugungi kunda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar (kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko`rsatish va

¹¹ 2013 yilda ish o`rni tashkil qilish va aholi bandligini ta'minlash Davlat dasturi

servis, kasanachilikni rivojlantirish) da ham namoyon bo`lmoqda. Mehnat resurslarining muntazam o`tib borishi yangi ish o`rinlariga bo`lgan talabni oshirishi tabiiy. Shuning uchun ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish va yangilarini tashkil etishga bo`lgan e'tiborni yanada kuchaytirish lozim,

Bugungi kunda yangi ish o`rinlarini tashkil etish bandlikni oshirishning muhim omillaridan biri ekan, uni amalga oshirishda, albatta, ko`p moliyaviy mablag`lar va zarur asbob-uskunalar talab etilishini barchamiz yaxshi bilamiz. Bu esa investisiya faoliyatini samarali olib borish kerakligini anglatadi. Shunday ekan, mamlakatimizga chet el investisiyalarini jalb etishni rag`batlantirish lozimdir. Bu mamlakatda yangi ish o`rinlarini yaratish, aholi bandligini oshirish bilan bir qatorda, ular daromadlarini oshishiga va turmush sharoitlarini yaxshilanishiga ham ijobiy ta'sir ko`rsatadi.

Aholi bandligini oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy monitoringlarning ham ahamiyati katta. Chunki, aynan monitoringlar orqali joylarda aholi turmush darajasi, ularning mehnatda bandligi, aholi xohish-istaklari, daromad manbalari va shu kabilar aniqlanadi. Monitoring natijalari umumlashtirilib, yakuniy xulosa asosida ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yoki chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Ishchi kuchi migrasiyasi ham hozirda aholini ish bilan ta'minlashda asosiy omillardan biriga aylanib bormoqda. Ma'lumki, ishchi kuchi migrasiyasi-bu hududlar bo`yicha ishchi kuchining ko`chishini anglatadi.

Masalan, biz yuqorida ko`rib chiqqan tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, mamlakatimizda mehnat resurslari hududlar bo`yicha taqsimlanishi notekis. Shu sababli aholi zich joylashgan hududlardan aholisi nisbatan siyrak hududlarga ishchi kuchi oqimini rivojlantirish aholi bandligidagi muammolarni hal etishni ta'minlaydi.

Bugun ishchi kuchining tashqi migrasiyasini rivojlantirish ham aholini ish bilan bandligini oshirishda muhim ahamiyatga egadir. Chunki mamlakatimiz mehnat resurslariga boy mamlakatlardandir. Shunday ekan ulardan samarali foydalanishda tashqi migrasiyani samarali yo`lga qo`yish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimiz mehnat resurslarining xorijiy davlatlarga borib ishlab kelishining quyidagi afzalliklari bordir:

- ishsiz aholi ish bilan ta'minlanadi;
- ular chet el mamlakatlaridan o`z kasb-malakalarini oshirib, yangi texnikalar bilan ishlashni o`zlashtirib qaytishadi;
- xorij mehnat tajribasini o`rganishadi;
- ishchi kuchi raqobatbardoshligi ortadi;
- mamlakatimizga xorijiy valyutalar oqimi oshadi;
- turmush darajasi yaxshilanadi.

Ma'lumki, respublikamiz aholisining aksariyat qismi qishloq joylarda istiqomat qilishadi. Shu sababli qishloq aholisini ish bilan ta'minlash va uning bandlishni oshirish dolzarb muammolardan biridir. Buning uchun esa qishloq joylarga ishlab chiqarishni, sanoatni turli ko`rinishlarda olib kirish va shu asosida bandlikni oshirishiga erishish mumkin. Masalan, bugungi kunda qishloqlarga kasanachilik sohasining kirib borishi natijasida aholining yuqori malakaga ega bo`lmagan qismining ish bilan ta'minlanishi bu borada olib borilayotgan ishlarning nechog`lik to`g`ri ekanligini ko`rsatmoqda. Demak, qishloq joylarga ishlab chiqarishning, sanoatning qishloq muhitiga mos, yangi ko`rinishlarini olib kirishni jadallashtirishga ko`proq e'tibor qaratish kerak.

Aholini ish bilan oqilona bandligini ta'minlash va uni malakasini oshirishda ular bozor islohotlari sharoitida samaradorlikni ta'minlovchi asosiy kuch hisoblanadi. Fan-texnika o`zining rivojlanish davrida yuqori cho`qqilarga erishayotgan bugungi kunda davlatimizda mavjud bo`lgan barcha tizimlarga kun sayin yangiliklar, ixtirolar, ilm- fan yutuqlari kirib kelmoqda. Ushbu yangiliklar va yutuqlarni o`zlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etishda malakali kadrlar talab etiladi. Bugungi kunda yaratilayotgan yangi ish o`rinlarining ma'lum qismi zamonaviy bilim va malakaga ega mutaxassislarni talab etayotganligi kadrlarni o`qitish, malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratish kerakligini ko`rsatmoqda.

Bugungi kunda aholini ish bilan bandligini oshirishda ish haqi tizimini takomillashtirish ham alohida o`rin tutmoqda. Chunki ish haqi xodimni mehnatga jalb etishda asosiy omil bo`lib, u mehnatni rag`batlantirishning eng samarali yo`lidir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aholi bandligining samaradorligini ta'minlash uchun mehnat bozorida quyidagi davlat siyosati yo`nalishlarini keltirib o`tishimiz mumkin:

- oilaviy biznes va kichik xususiy korxonalarni rivojlantirish;
- ushbu maqsadlarda mikrokreditlash tizimini rag`batlantirish;
- yirik sanoat korxonalari va nisbatan kichikrog` bo`lgan ishlab chiqarish korxonalari bilan kasanachilikni kengaytirish asosidagi kooperasiyani rivojlantirish imkoniyatlaridan yanada keng foydalanish;
- mahalliy xom ashyoni puxta qayta ishlashga va tayyor raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarishga yo`naltirilgan yengil va oziq-ovqat qayta ishlash sanoatining ko`p mehnat talab qiladigan tarmoqlarini jadal rivojlantirish;
- xizmat ko`rsatish va servis sohasini rivojlantirish va qishloq joylarda qishloq xo`jaligiga taalluqli bo`lmagan bandlik sohaslarini (masalan, kasanachilik) kengaytirish masalalarini hal qilishga etiborni-kamaytirmaslik;

ishsizlarni kasbiy o`qitish va jamoat ishlari tizimlarini takomillashtirish bilan shug`ullanadigan xizmatlar (organlar) ishini faollashtirish va boshqalar.

2.3.Xorazm viloyatida yangi ish o`rinlari yaratish dasturining ustuvor yo`nalishlari

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Ma`kamasining majlisidagi ma`ruzasida ta`kidlanganidek, “Yangi ish o`rinlari tashkil etish, bandlikni ta`minlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari doimo e`tiborimiz markazida bo`lib qolmoqda.

Ish o`rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta`minlash bo`yicha mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida 2013 yilda qariyb 970 ming kishi ish bilan ta`minlandi. Bu ish o`rinlarining 60,3 foizdan ortig`i qishloq joylarda yaratilgan. Bu borada kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 480 mingdan ortiq, kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod ish o`rinlari tashkil etildi”¹².

Xorazm viloyatida 2013 yilda yangi ish o`rinlari yaratish va aholi bandligini ta`minlash Dasturi asosida 60 mingdan ziyod ish joylari tashkil etilib, reja 103 foizga bajarilgan. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 46274 ta (80,2 foiz) ish o`rinlari yaratilgan, qishloq joylarida ham 47338 tadan ko`p ish o`rinlari ochilgan (82,2 foiz).

Bugungi kunda viloyatimizda 36,6 ming nafar ish bilan band bo`lmagan fuqarolar mavjud.

Viloyatda 2014 yilda 29,7 ming nafar yosh kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini egallayotgan ixtisosliklari bo`yicha ish o`rinlari tashkil qilishga e`tibor qaratilib, 2013-2015 yillarda sanoatni rivojlantirish, hududiy va xorijiy investisiyalarni jalb qilish, xizmat ko`rsatish va servis sohasini kengaytirish, bo`sh ob`ektlarni ishga tushirish, mahalliyashtirish va boshqa qator dasturlarni amalga oshirish hamda hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishni

¹² O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. Xalq so`zi. 2014 yil 18 yanvar.

taminlashni inobatga olgan holda 60 mingdan ziyod yangi ish o`rinlari yaratish bo`yicha dastur ishlab chiqilgan.

Dasturning birinchi yo`nalishida: sanoat dasturi, investisiya dasturlari, mahalliyLashtirish, tarmoqlarni modernizatsiyalashtirish va ishlab chiqarishni texnologik yangilash va qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirish hisobiga 2383 ta ish o`rinlari yaratiladi.

Ikkinchi yo`nalishida: kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil etish hisobiga 12587 ta, shundan sanoatda 13336 ta, qurilish-pudrat ishlarini kengaytirishda 2025 ta, xizmat ko`rsatish va servis sohasida 9199 ta ish o`rinlari tashkil etish rejalashtirilgan.

Uchinchi yo`nalishida: yakka va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 6857 ta ish o`rinlari tashkil qilinadi.

To`rtinchi yo`nalishida: uy mehnatini rivojlantirish, birinchi navbatda korxonalar bilan kooperatsiyaga asoslangan mehnat shartnomalari bo`yicha milliy va xalq hunarmandchiligi hamda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 19462 ish o`rinlari yaratish ko`zda tutilgan;

Beshinchi yo`nalishida: fermer va dehqon xo`jaliklarini rivojlantirish, ya`ni parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik, poliz ekinlari va boshqa mahsulotlarni yetishtirish va qayta ishlashga mo`ljallangan ixtisoslashtirilgan dehqon va fermer xo`jaliklari hisobiga 15839 nafar yangi ish o`rinlari yaratiladi.

Oltinchi yo`nalishida: ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmani rivojlantirish, jumladan, zamonaviy arxitektura talablariga mos keladigan uy-joylar, avtomobil yo`llari, elektr, suv va gaz ta`minoti ob`ektlarini qurish va ta`mirlash, telekommunikatsiya tarmoqlari va uskunalarni modernizatsiyalashtirish va rivojlantirish ishlarini kengaytirish hisobiga 2414 ta ish o`rinlari;

Yettinchi yo`nalishida: ishlamasdan turgan 82 ta korxonalar, shu jumladan, tijorat banklari balansiga berilgan bankrot korxonalarining faoliyatini tiklash bo`yicha aniq choralar ko`rish natijasida 625 ta yangi ish o`rinlari yaratilishi mo`ljallangan.

Bizning fikrimizcha, dasturni amalga oshirishda Davlat va hududiy dasturlariga muvofiq yangi ob'ektlarni ishga tushirish, korxonalarining mavjud quvvatlaridan unumli foydalanish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish jumladan, qishloq joylarda uy-joylarni ta'mirlash, aholi punktlarini obodonlashtirishni tashkil etish, uy mehnatini va fermer, dehqon xo'jaliklarida chorvachilik, parrandachilik va issiq xonalarni tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari hududlarda yangi ish o`rinlari yaratish bo`yicha amalga oshirilayotgan ishlarni doimiy ravishda tahlil qilib, shahar va tumanlar, viloyat kengashlari deputatlari, o`z hududlari bo`yicha ishlab chiqilgan yangi ish o`rinlari yaratish dasturlarini bajarilishiga, dasturga kirgan korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda, ish o`rinlari yaratishda yuzaga kelgan muammolarni yechishda doimiy hamkorlikni yo`lga qo`yishlari zarur.

Viloyat, shahar, tuman hokimliklari, mutasaddi tashkilotlar dasturda belgilangan yangi ish o`rinlari yaratish parametrlarini monitoringini doimiy ravishda olib borishlari hamda, dasturga kirgan korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda, ish o`rinlari yaratishda yuzaga kelgan muammolarni yechishda doimiy hamkorlikni yo`lga qo`yishlari, dasturning bajarilishi to`g`risida muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida axborot berib borishlari zarur.

Xulosa va takliflar

Aholini ish bilan oqilona bandligini ta'minlash va uni malakasini oshirishda ular bozor islohotlari sharoitida samaradorlikni ta'minlovchi asosiy kuch hisoblanadi. Fan-texnika o'zining rivojlanish davrida yuqori cho'qqilarga erishayotgan bugungi kunda davlatimizda mavjud bo'lgan barcha tizimlarga kun sayin yangiliklar, ixtirolar, ilm- fan yutuqlari kirib kelmoqda. Ushbu yangiliklar va yutuqlarni o'zlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etishda malakali kadrlar talab etiladi. Bugungi kunda yaratilayotgan yangi ish o'rinlarining ma'lum qismi zamonaviy bilim va malakaga ega mutaxassislarni talab etayotganligi kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratish kerakligini ko'rsatmoqda.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni doimiy ravishda tahlil qilib, shahar va tumanlar, viloyat kengashlari deputatlari, o'z hududlari bo'yicha ishlab chiqilgan yangi ish o'rinlari yaratish dasturlarini bajarilishiga, dasturga kirgan korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda, ish o'rinlari yaratishda yuzaga kelgan muammolarni yechishda doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yishlari zarur.

Qishloq joylarga ishlab chiqarishning, sanoatning qishloq muhitiga mos, yangi ko'rinishlarini olib kirishni jadallashtirishga ko'proq e'tibor qaratish kerak. Bugungi kunda aholini ish bilan bandligini oshirishda ish haqi tizimini takomillashtirish ham alohida o'rin tutmoqda.

Aholining ish bilan oqilona bandligini ta'minlash va uni oshirish yo'llari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- respublikamizda ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish;
- ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini rivojlantirish;
- mamlakatga chet el investisiyalarini jalb qilish;
- aholi bandligini oshirish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy monitoringlar o'tkazish;
- mehnat organlari faoliyatini yanada rivojlantirish;

- mamlakatda ishchi kuchi migrasiyasini rivojlantirish;
qishloq joylarda ishlab chiqarishni, sanoatni turli ko`rinishlarda olib kirish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. Xalq so`zi. 2014 yil 18 yanvar.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O`zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Bosh maqsadimiz – keng ko`lamli islohotlar va modernizasiya yo`lini qat’iyat bilan davom ettirish” mavzusidagi ma`ruzasini o`rganish bo`yicha o`quv qo`llanma. – T.: “O`qituvchi” NMIU. - 2013.
3. Karimov I.A. “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O`zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasidan. “Xalq so`zi” – 2010 y. 29 yanvar. №21.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. - T.: O`zbekiston, 2009, 11-6
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 fevraldagi “Obod turmush yili” Davlat dasturi to`g`risida”gi 1920-sonli qaroriga ilova
6. Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013. - B.184.
7. 2013 yilda ish o`rni tashkil qilish va aholi bandligini ta`minlash Davlat dasturi.
8. O`zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta`minlash to`g`risida”gi Qonuni 5-moddasi, Toshkent, 1998.
9. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma`naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish –

- barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild, –T.: «O`zbekiston», 2007. 57-58-betlar.
10. O`zbekiston Prezidentining “Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko`lamini kengaytirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi 2009 yilning 3 avgustdagi Qarori.
 11. 2013 yilda ish o`rni tashkil qilish va aholi bandligini ta`minlash Davlat dasturi
 12. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi (darslik) T.; “O`qituvchi”, 2001. 28-65 betlar.
 13. Абдурахманов К.Х. и другие. Экономика труда. –М.: “Экзамен”, 2004. -736 с.
 14. Abdurahmonov Q.X., Xolmo`minov Sh.R “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi”(o`quv qo`llanma) T.:2004
 15. Abdurahmonov Q.X., Xolmo`minov Sh.R., Akbarov A.M. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi – T. TDIU: 2005.
 16. Xolmo`minov Sh.R. Aholini ish bilan oqilona bandligini ta`minlash.- Toshkent, Muloqot jurnali,1998. 2-son.
 17. Волгин Н.А. «Экономика труда: социально – трудовые отношения» – М.: Экзамен, 2004
 18. Генкин Б.М. Экономика и социология труда. – М.: Норма 2006. 372с.
 19. Мумладзе Р.Г., Гужина Г.Н. Экономика и социология труда Учебник – Москва КНОРУС, 2007.
 20. Abdurahmonov Q.X. “Mehnat iqtisodiyoti” (Darslik) T.: 2009 yil
 21. www.stat.uz (O`zbekiston Respublikasi statistika qo`mitasi)
 22. www.uza.uz (O`zbekiston Milliy Axborot agentligi)
 23. www.mehnat.uz
 24. www.tdiu.uz
 25. www.bandlik.uz
 26. www.mintrud.uz
 27. www.gov.uz

28. www.referat.ru

29. www.ziyonet.uz

30. www.uzreport.com